

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

«O'ZBEK FILOLOGIYASI» KAFEDRASI

**«O'ZBEK TILIDA FAOL VA NOFAOL SO'ZLARNING
USLUBIY XUSUSIYATLARI»**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «O'zbek filologiyasi» ta'lim
yo'nalishi bitiruvchisi 4-kurs talabasi
Jetpispayev Raxat _____

ILMIY RAHBARAR:
f.f.n., dots. Kazakov I. _____

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
____-sonli bayonnomasi «____» may 2014yil

Nukus- 2014

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI HIMOYAGA TAVSIYA
QILINADI:**

Fakultet dekani:	dots. Abdullaev H.
Kafedra mudiri:	dots. Bobojonov F.
Ilmiy rahbar:	dots. Kazakov I.

DAK Q A R O R I:

JETPISPAEV RAXATning «**O‘ZBEK TILIDA FAOL VA NOFAOL SO‘ZLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**» mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga Davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan « » () bahosi qo‘yilsin.

DAK kotibi:

Qlichev N.

«_____»_____ 2014yil

O‘ZBEK TILIDA FAOL VA NOFAOL SO‘ZLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

R E J A

Asoslama.

Kirish.

I Bob. Nofaol lug‘at tarkibiga oid so‘zlarning uslubiy xususiyatlari.

1. Faol va nofaol leksik qatlam haqida.
2. Qo‘llanish doirasi chegaralangan leksikaning uslubiy xususiyatlari.

II Bob. Ibora va maqollarning uslubiy xususiyatlari.

1. Emotsional-ekspressiv leksikaning uslubiy xususiyatlari.
2. Emotsional-bo‘yoqdor so‘zlarning uslubiy qo‘llanilishi.

Umumiy xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar

Asoslama

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek tilidagi faol va nofaol lug‘at tarkibini tashkil qiluvchi so‘zlarning uslubiy qo‘llanilishini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish, mazkur uslublarning qo‘llanilish darajasi va ma‘no qirralarini tahlil qilish bugungi kun tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Alohida ta’kidlash kerakki, shu kungacha faol va nofaol lug‘at tarkibiga kiruvchi leksik qatlamlar, jumladan, shevaga xos so‘zlar, atamalar, yangi paydo bo‘lgan so‘zlar, eskirgan qatlam, xususan, ibora va maqollarning uslubiy xususiyatlari hozirgi o‘zbek adabiy tili taqozo qilayotgan sistem yo‘nalishda o‘rganilmagan. Ayniqsa, ibora va maqollarning turli xil nutq uslublarda qo‘llanilishidagi o‘ziga xosliklarni o‘rganish bugungi kun talabidir.

Ana shu zaruratdan kelib chiqqan holda tadqiqotimizni o‘zbek tilida faol va nofaol so‘zlarning uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilishga bag‘ishladik.

Mavzuning o‘rganilishi. Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligi keyingi yillarda qator yutuqlarga erishdi. Mazkur yutuqlardan eng muhimi o‘zbek sistem tilshunosligining shakllanishi va jadal sur’atda ravnaq topayotganligidir. An’anaviy tilshunoslikdan farqli o‘laroq, sistem tilshunoslikda til birliklari va nutq birliklari o‘zaro farqlanadi. Ushbu tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, badiiy asarda qanday til birliklarini qo‘llash emas, bu birliklarni nima maqsadda qo‘llash va undan qanday nutq birliklari hosil qilish masalasi muhimroqdir. Bunday xususiyatlar muallifning badiiy nutq mahoratini belgilashda mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kungacha o‘zbek tilshunosligida faol lug‘at tarkibi keng o‘rganilgan. Biroq tadqiqotlarning aksariyatida, jumladan, B.Umurov, R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov, Yo.Tojiev, B.Yo‘ldoshev va boshqa tadqiqot ob’ektimizga daxldor ilmiy tadqiqotlarda masala an’anaviy tilshunoslik aspektida amalga oshirilgan. Bizning tadqiqotda esa muammo tizim sifatida o‘rganish asosiga qurilgan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotimizdan ko‘zlangan maqsad hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol va nafaol so‘zlarning uslubiy xususiyatlarini yoritishdan iborat.

Oldimizga qo‘ygan ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

-nafaol lug‘at tarkibining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

-mazkur qatlamga kiruvchi leksik birliklarning ishlatilish mezonlarini tahlil qilish;

-ibora va maqollarning nutq uslublarida qo‘llanilish shakllarini va o‘ziga xos ma‘no qirralarini o‘rganish;

-so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlarini hosil qiluvchi til birliklarining uslubiy xususiyatlarini aniqlash.

Sanab o‘tilgan vazifalarni amalga oshirish va ko‘zlangan maqsadga erishish uchun tegishli nazariy ma‘lumotlar tanqidiy nuqtai nazardan o‘rganib chiqildi hamda publitsistik va badiiy asarlardan misollar to‘plandi. Yig‘ilgan faktik materiallar ilmiy asosda izchillik bilan yoritib berildi.

KIRISH

Nutqning aniq va ravshan bo'lishi, avvalo, so'zdan to'g'ri foydalanishga bog'liq. So'zni o'z o'rnida to'g'ri ishlata bilash uchun uning leksik ma'nosini anglash zarur.

So'zning leksik ma'nosini tushunmaslik uni xato qo'llashga olib keladi. Masalan: *O'n kun deganda er xaydash va ariq chopish tugallandi.* Bu gapda *chopish* so'zi xato qo'llangan. Odatda, ariq chopilmaydi, qaziladi. *Sekin-asta deb, xotirjam yuraversangiz, g'alvir suvdan ko'tarilganda, brigada a'zolari yuzingizga qorakuya chaplaydi.* Bu misolda *chaplamoq* fe'lining leksik ma'nosidan to'g'ri foydalanilmagan. Odatda, *qorakuya surtiladi, loy chaplanadi.*

Buyuk so'z san'atkorlari so'z xususida shunday deyishgan; «*So'z barcha faktlar, barcha fikrlar libosidir*» yoki «*Agarda biror narsani aniq ifodalay olmas ekanmiz, bunda tilimizdan emas, balki uquvsiz mahoratimizdan gina qilishimiz kerak*» va hokazo.

So'z san'atkorlari tilga alohida e'tibor berib keldilar, uslub va ifodaning sodda bo'lishini, nutqda fikriy mujmallikka yo'l qo'ymaslikni targ'ib etdilar. Ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy tilga e'tibor – elga e'tibor, deb tilning ahamiyatini alohida ta'kidladi. Bobur esa o'g'li Xumoyunga yozgan maktublaridan birida uning (o'g'lining) fikrning ravonligi va aniqligiga rioya qilmaganligidan tashvishlanib, «*xatingni xud tashvish bilan o'qisa bo'ladi... Munding beri betakalluf va ravshan va pok alfoz bila bit, ham senga tashvish ozroq bo'lur, ham o'qig'uvchiga*», -degan edi.

Har bir kishi ona tilini mukammal egallash, uning nazariy va amaliy asoslaridan xabardor bo'lishi kerak. Chunonchi, gap tarkibidagi so'zning semantikasi - ma'no tomoni, qo'shimcha emotsional - ekspressiv ottenkasi va uslubiy belgilari, fikrning so'z vositasi bilan mantiqiy jihatdan to'g'ri ifoda qilish usullari va shunga o'xshash masalalarni puxta bilishi zarur.

«Ona tilini o'rganish, - deydi buyuk so'z san'atkorlaridan biri, - nihoyatda ulug' bir ish. Inson tafakkurining erishgan eng yuksak yutuqlari, eng chuqur

bilimlari va g'oyat otashin hislar, agar ular so'z vositasi bilan aniq va ravshan ifoda qilinmasa, odamlar uchun noma'lumligicha qolaveradi. Til fikrni ifodalash qurolidir. Binobarin, agar fikr nutq vositasi bilan bayon qilingan bo'lsa, agar u til vositasi bilan ruyobga chiqqan bo'lsa, agar u, faylasuflar tili bilan aytganda, - boshqalarga bevosita borib etsa, aniqlashtirilsagina fikr bo'la oladi».

Omonimlar. Har bir tilning lug'at tarkibida tovush tarkibi va yozilishi jihatdan bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar muayyan miqdorda topiladi. Bunday so'zlar omonimlar guruhini tashkil qiladi.

Fonetik (tovush) tomondan bir xil - shakli o'zaro ma'lum bir ko'rinishga kelib qolgan ikki va undan ortiq so'zlar omonimlardir. Omonimlar ma'no jihatdan o'zaro munosabatda bo'lmaydi, boshqa-boshqa tushunchalarni anglatadi. Masalan: ot (ish hayvoni, ism, buyruq fe'li). Ko'p ma'noli so'zlarning shakli asli bitta bo'lib, ma'nolari o'zaro bir-biriga juda yaqin va aloqador, biri-ikkinchisiga bog'liq bo'ladi. Masalan, *bosh so'zi: ishning boshi, gapning boshi, erning boshi.*

O'zbek tilida omonimlar turli ko'rinishlarga ega. *CHang (to'zon)-chang (musiqasi asbobi), yoqmoq (chiroyli, yoqmoq) - yoqmoq (uning nutqi menga juda yoqdi, «xush kelmoq, ma'qul bo'lmoq»)* kabi barcha grammatik shakllari teng, bir so'z turkumiga kiruvchi so'zlar omonimlar deyiladi.

Omonimlarning ikkinchi tipi - omoformalar¹. Ba'zi grammatik shakllardagina teng keluvchi, bir xil talaffuz qilinadigan va bir xil yoziladigan so'zlar omoformalar deyiladi. Omoformalar ko'pincha boshqa - boshqa so'z turkumlariga mansub bo'ladi. Masalan: *olma (ot) - olma (fe'lining buyruq shakli), qo'y (uy hayvoni) - qo'y (fe'lining buyruq shakli).* Omonimlarning uchinchi tipi omofonlardir. Bular aytilishi (o'qilishi) bir xil, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardir. Masalan: *etti (son) - etdi (fe'l), yot (begona, buyruq fe'li) - yod (xotira).* Omofonlarni farqlamaslik ko'pincha og'zaki nutqda so'zlarni noto'g'ri qo'llashga olib keladi.

¹ Omoforma-grekcha homos –bir xil va lotincha forma-chakl.

Omonimlarning to'rtinchi tipi omograflar bo'lib, ular yozilishi bir xil, lekin aytilishi (o'qilishi) har xil bo'lgan so'zlardir. Masalan, *tok (uzum) – tok (elektr quvvati)*, *tur (xil, nav) – tur (davra, shaxmat o'yinlarining ikkinchi turi boshlandi)*.

Tildagi har bir so'zning leksik ma'nosi boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishganda reallashadi. Omonimlarning matndan tashqari yolg'iz o'zini ishlatish deyarli uchramaydi. SHunday ekan, matn omonim so'zlar ma'nosi tufayli sodir bo'luvchi qiyinchilikni bartaraf qiladi.

Nutqda ikki xil anglash holatiga yo'l qo'yuvchi omonimiya hodisasi, o'z navbatida, tushuncha doirasini kengaytiradi. Chunonchi, yozuv va talaffuzda bir o'rinda so'zni, ikkinchi o'rinda so'z birikmasini o'xshash-teng keltirish hodisasi ham omonim so'zlar doirasini kengaytiradi. Misollar:

*Inson bo'lib qidirmadim engil turmush va **tanga**,*

Kuch-quvvatim ham hayotim - bor imkonim Vatanga.

Vatan desam umrim uzoq, hayot porloq ko'rinur,

*Chunki Vatan sevgisidan kuch-quvvat jon va **tanga**.*

Yoki:

*Deydilarki, **kungaboqar**,*

*Umr bo'yi **kunga boqar**.*

Yoki:

*Mudir do'konida **qirq** «ish»ni o'ylar,*

Savdoda bo'y - endan qirqishni o'ylar.

-Qirg'inlik qilmagin! - degan kishining,

*Darhol qadamin **qirqish**ni o'ylar.*

Nutqda omofonlarni bunday ishlatish orqali so'z o'yinlari hosil qilinadi. Bunda tovush tomondan o'xshash, lekin ma'nosi turlicha bo'lgan elementlarning, omonim so'zmi yoki so'z birikmasi ekanidan qat'iy nazar, matndagi har galgi takrori juda muhimdir. Omonim so'zlarning bu tipidan, ayniqsa askiyada so'z o'yini va qochiriq vositasi sifatida keng foydalaniladi. Bu priyom yozuvchi va shoirlarimiz ijodida tez-tez uchrab turadi. Masalan, quyidagi misolda ma'nosi bir-

biridan juda uzoq bo'lgan so'zlarning «to'qnashtirilishi» omonimik holatni yuzaga keltirgan:

Bir yosh yigit ist'edodli shoir oldiga kelib yozuvchilik da'vo qila boshladi:

-Men ko'p vaqtlardan beri adabiy ishlar bilan shug'ullanib kelayotirman.

Istardimki, men yozgan asarlar ham nashr qilinsa.

-Siz nozimmi yoki nosir, - so'rabdi shoir diqqat bilan uning so'zlarini eshitgach.

Yigit elkasini qisib javob beribdi:

-Nozim ham, nosir ham emasman, mening nomim Karimjon.

(Gazetadan).

Bu o'rinda adabiyotdan butunlay xabarsiz kishi qiyin ahvolga tushib qoladi: *nozim, nosir* (nazm, nasr - adabiy atama – poeziya va proza) o'rniga uning omonimini (Nozim, Nosir - atoqli ot) qo'llab, suhbatdosh savolga hech aloqasi bo'lmagan javobni beradi. Latifa muallifi omonimlarni «to'qnashtirish» yo'li bilan yozuvchilikni da'vo qiluvchi kishining satirik tavsifini chizadi.

Omonimlardan xalq og'zaki ijodida, badiiy adabiyotda maxsus poetik janr – tuyuq tuzishda keng foydalaniladi. Misollar:

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,

Yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot.

Nasihatim yod qilib ol, farzandim,

Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.

(Xalq og'zaki ijodidan).

Bunda ot so'zi birinchi satrda «nom, shuhrat», ikkinchi satrda «tark etmoq, tashlamoq», uchinchi satrda «ish hayvoni - ot» ma'nolarida ishlatilgan.

Olamni shunda nigorim – ol! - dedi,

Olma birla bu ko'ngilni – ol! - dedi.

So'rdim ersa olmasining rangini,

Ne so'rarsan, olma rangi – ol dedi (N.)

Bu tuyuqda ol so‘zi uch ma’noda ishlatilgan: 1) buyruq fe’li; 2) ko‘ngil ovlamoq; 3) qizil rang.

Omonimlar va paronimlar ba’zi jihatlar bilan bir-biriga yaqin. Paronimlar tovush jihatdan butunlay teng bo‘lmasa-da, lekin aytilishida birmuncha o‘xshash bo‘lgan so‘zlardir. Masalan: *asr – asir, shox – shoh* va boshqalar.

Paronimlarni xato qo‘llash, odatda, kam tanish bo‘lgan so‘zlarda uchraydi. Notanish so‘zlarning talay qismini atamalar tashkil qiladi: Masalan: *betonit (ichi kovak g‘isht) – bentonit (yuqori kolidli loy)*.

Nutqda noaniqlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun tildagi paronimlarni farqlay bilish, ma’nolarini to‘g‘ri anglay olish zarur. Aks holda quyidagicha qo‘pol xatolar sodir bo‘lishi mumkin: *Boboqul bilan Polvon yumshoq o‘rindiqa o‘tirishganda og‘ir yukka bardosh berolmagan devondan beo‘xshov ovoz chiqdi. CHanoqlardagi lo‘ppi ochilgan paxtalar quyoshda yarqirab kumushdek toblanadi. Vokzal maydonidagi avtomashinalarda necha yuzlab yoshlar kelib to‘plandilar. Ularning qo‘llaridagi shiorlar va transportlar baxtli yoshlikdan darak berib turibdi. Bu misollarda divan o‘rinida devon, tovlandi o‘rnida toblandi, transparat o‘rnida transport so‘zi noto‘g‘ri ishlatilgan.*

Sinonimlar. Ma’nolari bir xil yoki o‘zaro yaqin, talaffuz va yozilishi har xil bo‘lgan so‘zlar sinonim hisoblanadi. Masalan: *chiroyli, go‘zal, ko‘rkam, ko‘hlik, xushro‘y, suluv, zebo* kabi.

Sinonimlar ma’no va qo‘llanilish doiralariga ko‘ra uch xil: ideografik, stil, va uslubiy sinonimlar. Ideografik sinonimlar o‘zaro leksik ma’no ottenkalari bilan farqlansa, stil sinonimlari qo‘llash doirasiga (nutqning turli stiliga mansubligiga), uslubiy sinonimlar esa ekspressiv bo‘yog‘iga (sinonimik qatorda asosiy, neytral so‘zga nisbatan ekspressiv ottenkaga) ko‘ra farqlanadi.

Sinonimlarni differensiyalash paytida, avvalo, ularning ekspressiv-stilistik ottenkalari, muhim farqlari ko‘rinadi.

Masalan: *yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor* sinonimik qatorda *yuz* umum ishlatadigan so‘zdir. Qolganlari esa turli

ma'no ottenkalariga ega: *bet*, *aft* so'zlari salbiy ottenkaga ega; *basharada* salbiy ottenka yuqoridagilarga nisbatan yanada kuchli: *turq* so'zida esa salbiy ottenka *bashara* so'zidagiga nisbatan ham kuchli; *chehra* – ijobiy ottenkaga ega; *jamol* so'zida ijobiy ottenka yanada kuchli bo'lib, bu so'z asosan, poetik uslubga xos; *diydor*, *ko'rishmoq*, *diydoriga to'ymoq* kabi bir-ikki so'z bilan qo'llaniladigan holatlar ham kuzatiladi; *oraz*, *uzor*, *ruxsor* esa eskirgan so'zlar bo'lib, ular kitobiy usulbga xos.

O'zaro umumiy ma'nosi bilan birlashib, stilistik ottenkasi – bo'yog'i va nutqda ishlatilish doirasi jihatidan farqlanadigan sinonimlar uslubiy sinonimlar deyiladi.

Leksik ma'nosi jihatidan farqlanadigan sinonimlar ideografik¹ (ma'no) sinonimlardir. Masalan, *kasal* (umumishlatadigan so'z), *bemor* (yozuvda ko'p qo'llanadi), *xasta* (eskirgan so'z), ammo ba'zan-ba'zan, ora-sira *kasal* bo'lib turish ma'nosini bildiruvchi *betob*, *notob* so'zlari yuqoridagilarga nisbatan uslubiy va ideografik sinonimdir.

Ideografik sinonimlar o'zaro leksik ma'no darajasiga ko'ra farqlanadi: *yomg'irda plashim nam bo'ldi*, *yomg'irda plashim ho'l bo'ldi* bog'lanishlarning keyingisida belgi darajasi kuchliroq. Nutqda fikr ottenkasi yoki emotsiyasiga, leksik, grammatik yoki uslubiy xarakteriga mos sinonim so'zlardan faqat bittasi tanlab olinadi va ishlatiladi. SHu sababdan sinonimik qatordagi so'zlar o'rtasidagi ba'zi farqlarni o'rganish uslubiyatning vazifasi hisoblanadi.

Muayyan sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar konkret hollarda ma'no tomonidan bir-biridan ajraladi, uslubiy qo'llanishiga qo'ra farqlanadi.

Bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar ma'no jihatidan yaqin bo'lsa ham, ba'zan ulardan birini ikkinchisining o'rnida ishlatib bo'lmaydi. Masalan: *ayanch ahvol*, *og'ir ahvol*, *qiyin ahvol*, *mushkul ahvol* birikmalarida *ayanch*, *og'ir*, *qiyin*, *mushkul* so'zlari bir-biriga sinonim bo'lib, ayni o'rinda ularni almashtirish ma'noga halal etkazmaydi. Ammo boshqa bir konkret tushuncha yoki tasavvurni

¹ Ideografik – grekcha idea – tushuncha, tasavvur, grafik.

ifodalashda bu sinonim soʻzlarni leksik maʼno nuqtai nazaridan baholash lozim boʻladi. Masalan: *ogʻir chamadon*, deyish mumkin boʻlgan holda, *mushkul chamadon*, *qiyin chamadon* deyish kulgilidir.

Sinonimlar nutqda ishlatilish doirasi jihatidan ham oʻzaro farqlanadi. Masalan, *lab* - barcha nutq uslublarida ishlatiladigan umumnutq soʻzi, *dudoq* - badiiy nutq soʻzi; *shamol* – umumnutq soʻzi; *sabo*-badiiy nutq soʻzi; *eslamoq* - umumnutq soʻzi; *xotirlamoq* - rasmiy nutq soʻzi; *yoʻqlamoq* - soʻzlashuv nutqi soʻzi. Bu xil sinonimlar stil (uslub) sinonimlari deyiladi.

SHuningdek, ishlatilish doirasi chegaralangan yo chegaralanmagan boʻlishi mumkin. Masalan: *keksa*, *qari*, *oqsoqol*, *nuroni*y, *moʻysafid* kabi bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi soʻzlar orasida *qari* soʻzining ishlatilish doirasi keng. Bu soʻz insondan tashqari, hayvonlar uchun ham qoʻllaniladi: *qari ot*, *qari tulki* kabi. Lekin *oqsoqol*, *nuroni*y, *moʻysafid* sinonim soʻzlarning ishlatilish doirasi chegaralangan. Bunday holatlar – ishlatilish doirasining keng-torligi sinonimlar maʼno hajmiga, yaʼni ularning keng yoki tor maʼno ifodalashiga bogʻliq.

Til faktlari sinonim soʻzlar bilan evfemizmlar orasida maʼlum darajada munosabat borligini koʻrsatadi. Maʼnosi qoʻpol yoki aytilishi noqulay soʻzlarni shunday taassurot tugʻdirmaydigan soʻz yoki ibora bilan almashtirish vositalaridan biri evfemizmlardir. Masalan: *kar va qulogʻi ogʻir*, *oʻgʻri va qoʻli egri*, *ikkiqat va ogʻir oyoq* kabi.

Oʻzbek tili nutqida nozik maʼno ottenkalarini hamda rang-barang uslubiy boʻyoqlarni bera oladigan, sinonimlarga boy soʻzlar mavjud. Mashhur oʻzbek shoir va yozuvchilari, soʻz ustalari sinonimlardan mohirlik bilan foydalanib kelganlar. Masalan, Alisher Navoiy oʻzining «Mahokamatul-lugʻatayn» asarida birgina *yigʻlamoq* soʻziga mazmunan yaqin boʻlgan bir qancha sinonimni keltiradi: *yigʻlamsiramoq*, *ingramoq*, *singramoq*, *oʻkirmoq*, *qichqirmoq*, *hoy-hoylab yigʻlamoq*. Alisher Navoiy bu sinonimlar bir-biridan nozik, maʼno ottenkalari va uslubiy qoʻllanish oʻrinlariga koʻra farqlanishini misollar bilan koʻrsatadi. Koʻzdan

yosh chiqarmasdan yig‘lash – yig‘lamsiramoqning ma’nosini Navoiy quyidagi baytda ochib beradi:

Zohid ishqin desaki, qilg‘ay fosh,

Yig‘lamsinuru ko‘ziga kelmas yosh.

So‘ngra Navoiy *ingramoq* va *singramoq* so‘zlariga izoh berar ekan, «*dard bila yashurun ohista yig‘lamoqdur va oralarida tafovut oz topilur*», deydi va quyidagi baytni keltiradi:

Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamoq,

Kechalar goh ingramoqdur odatim, goh singramoq.

Sinonimik qatorni tashkil qiluvchi qolgan so‘zlarni ham shu tariqa baytlarda ma’nosini ochib beradi va farqlarini ko‘rsatadi.

Ko‘rinadiki, sinonimlar bir xil ma’nosi bilan birlashuvchi sinonim so‘zlar qatorini tashkil qilsa, fikr va his-tuyg‘ularni aniqroq, ravshanroq ifodalashga imkon beradigan uslubiy ma’nolariga ko‘ra o‘zaro farqlanadi.

Nutqning aniq va ravshan bo‘lishi sinonimlardan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq. Ba’zi sinonim so‘zlarning ma’nosini farqlash birmuncha murakkab bo‘ldi. Hatto, adabiy nutqni yaxshi biladigan, sinonimlarni to‘g‘ri tanlab, ularni maqsadga muvofiq ishlata oluvchi kishilar ham ko‘pincha sinonimik so‘zlar ottenkalaridagi tafovutlarni tushuntirishda ojizlik qilishlari mumkin. Masalan: bir sinonimik qatorda *iflos, isqirt, irkit, isliqi, iqna* so‘zlarining ma’no nozikliklarini osongina izohlab berish qiyin.

Sinonim so‘zlarning ma’no qirralarini to‘g‘ri anglash va o‘z o‘rnida qo‘llash ularning qanday so‘zlar bilan birikib kela olishi imkoniyatlarini ham hisobga olishni talab etadi. Masalan, *qasamyod, qasam, ont; qasamyod qilmoq, qasam ichmoq, ont ichmoq. Qasam qilmoq, ont qilmoq* deb bo‘lmaganidek, *qasamyod ichmoq* ham deyilmaydi.

Har bir sinonim so‘zning antonimini topish ham sinonim so‘zlarning ma’no farqini ochishga yordam beradi. Masalan: *engil-og‘ir, vazmin-zil, zildek, zalvorli;*

oson, o'ng'ay-qiyin-mushkul-mahol-mashaqqatli-dushvor. Y Ana: sekin-tez, ohista-ildam, sust-jadal kabi.

Sinonim so'zlar o'rtasidagi semantik-uslubiy jihatlarni hisobga olmaslik natijasida so'z tanlash va qo'llash bilan bog'liq nuqsonlarga yo'l qo'yilishi mumkin. Masalan, quyidagi jumalarda *yiqilmoq* va *qulamoq*, *tashna* va *chanqoq*, *ozg'in* va *oriq* so'zlari o'rtasida ma'no ottenkalarini, ularning qo'llanish doiralarini hisobga olmaslik natijasida uslubiy hatoga yo'l qo'yilgan:

1. *Buldozer ko'chamizda yiqilgan va yiqilay deb turgan devorlarni bir chekkaga surib, yo'l ochar edi. Yiqilmoq* so'zi, asosan, odam va jonli narsalarga nisbatan qo'llaniladi. SHuning uchun bu gapda *yiqilmoq* o'rniga uning sinonimi va asosan, jonsiz narsalarga nisbatan qo'llanuvchi *qulamoq* so'zini ishlatish kerak edi.

2. *Cho'ponlar ozg'in qo'ylarning parvarishiga alohida e'tibor bermayotirlar*, gapida odamga nisbatan qo'llanilgan *ozg'in* so'zi o'rniga uning sinonimi *oriq* ishlatilganda matn mazmuniga mos bo'lar edi.

3. *Brigada a'zolaridan R.Avvalov va M.Qobilovlar tunda tashna g'o'zalarni suvga qondirib sug'orishyapti*, gapidagi *tashna* so'zi odamga nisbatan qo'llaniladi, odamga va boshqa jonli, jonsiz narsalarning suvtalab holatiga nisbatan *chanqoq* so'zi ishlatiladi.

Bir fikr bayonida sinonimik qatordagi so'zlardan bir yo'la ikkisini yoki undan ortig'ini ishlatish sinonimlarning uslubiy figura sifatida xizmat qilishi bilan bog'liq.

Sinonimlar uslubiy figura sifatida quyidagi maqsadlarda ishlatiladi:

1. Ma'noni kuchaytirish, umumlashtirish, jamlash maqsadida sinonimik juft so'zlar ishlatiladi: *baxt-saodat*, *qadr-qimmat*, *hurmat-ehtirom*. Bunday vaqtda ikkinchi sinonim birinchisining aynan takrori bo'lmay, balki u ifodalayotgan tushunchani qo'shimcha belgisi bilan to'ldirib turadi:

Kuyov tikilganda baxtiyor, maftun,

G'uncha lablaringga chiqar nim kulgu.

Sen va'da etding baxtu saodat,

Unda aks etadi misoli ko'zgu.

(Zulfiya).

2. Fikrning nutqdagi o'xshash yoki yaqin tafsilotlarini xilma-xil shakllarda ifodalash uchun ikki yoki undan ortiq sinonimlar ishlatiladi. Bunday vaqtda sinonimlar turli ko'rinishlarda, chunonchi, o'zak sinonimlar shaklida (*katta, ulug', buyuk, zo'r, azim, ulkan*), qo'shma, yasama so'zlar shaklidagi (*dovyurak, qo'rqmas*) sinonimlar, paralell ishlatiladigan (*tema va mavzu, protsess va jarayon*), ekvivalent sinonimlar, birikma sinonimlar (*farq qilmoq, tafovut qilmoq*) va nihoyat, evfimistik so'z yoki so'zlar birikmasi orqali ifodalanadigan (*og'ir oyoq, ikkiqat, homilador, yukli*) sinonimlar shaklida bo'ladi.

Sinonimlar nutqni ta'sirchan bayon qilishda hamda uslubning rangdor bo'lishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

I B o b.

Nofaol lug‘at tarkibiga oid so‘zlarning uslubiy xususiyatlari

1. Faol va nofaol leksik qatlam haqida. Leksika muttasil o‘shish va rivojlanishda bo‘lib, unda doim yangi so‘zlar paydo bo‘ladi, tildagi mavjud so‘zlarning ba‘zilari asta-sekin eskirib boradi. Eskilik ottenkasiga ega bo‘lgan so‘zlar tilda birmuncha vaqtga qadar ishlatiladi. SHunga ko‘ra umumxalq tili lug‘at boyligini ikki katta guruhga ajratish mumkin: faol so‘zlar va nofaol so‘zlar.

Faol so‘zlar guruhiga ma‘nosi shu tilda gaplashuvi barcha kishilarga tushunarli va kundalik turmushda qo‘llanishi odat bo‘lib qolgan so‘zlar kiradi. Bu guruhdagi so‘zlar eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lmaydi.

Nofaol so‘zlar guruhiga eskilik bo‘yog‘i aniq bilinib turadigan va ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lmagan so‘zlar kiradi. Bunday so‘zlar kundalik aloqada kamroq ishlatiladi.

Nofaol so‘zlar ikki guruhga bo‘linadi: eskirib qolgan so‘zlar (arxaizmlar, istorizmlar) va yangi so‘zlar (neologizmlar).

Arxaizm va istorizmlarning uslubiy vazifasi. Tilning hozirgi davri uchun eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan so‘zlar arxaizm yoki arxaik so‘zlar deb yuritiladi¹. So‘z ma‘nosining eskirishi va turli sabalarga ko‘ra uning o‘rnini boshqa so‘z olishi natijasida arxaizm paydo bo‘ladi. Masalan: *avaxta* (*qamoqxona*), *musofirxona* (*mehmonxona*) kabilar o‘zbek tilida bugungi kun nuqtai nazaridan eskirgan so‘zlar bo‘lib, ularning o‘rnini yangi so‘zlar egallagan.

Arxaiklashish hodisasining ko‘rinishlari:

a) so‘z butun holda, yaxlitligicha arxaiklashadi. Bu leksik arxaizm deyiladi: *gardun* (*osmon*), *davot* (*siyohdon*); b) so‘zning ma‘nolaridan biri arxaiklashadi. Bu semantik arxaizm deyiladi. Masalan: *nishon* so‘zining «*orden*» ma‘nosi arxaiklashgan, u belgi, alomat, iz, asar ma‘nolarida keng qo‘llaniladi (*nishon qo‘ymoq*, *nishonga olmoq*, *undan hech nishon qolmadi*). SHuningdek, *g‘animat*

¹ Arxaik-grekcha *archaios* -«qadimgi» demakdir.

soʻzining «*qoʻlga tushirilgan narsa, oʻlja*» maʼnolari arxaiklashgan, u «*qulay, tuzuk, yaxshi*» kabi maʼnolarida faol ishlatilgan (*gʻanimat vaqt*). Yana: *daha* soʻzining «*shaharlarning bir qismi, tumani*» maʼnosi (*daha boshligʻi*) arxaiklashgan, bu soʻz «*ipak qurti yoshi*» maʼnosida kasb-hunar leksikasida qoʻllaniladi (*qurtlar soʻnggi dahaga kirdi*).

Arxaik soʻzlardan tarixiy voqea, hodisalarni real tasvirlashda uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Arxaizmlar badiiy asarlarda, feletonlarda, baʼzi ijtimoiy-siyosiy uslubda yozilgan tanqidiy maqolalarda nutqqa kinoya, piching, mazax-masxara ruhi va hajv ottenkasini berish uchun ham ishlatiladi.

Eskirib qolgan soʻzlarga istorizmlar ham kiradi. Hozirgi hayotda uchramaydigan, faqat tarixiy narsa yoki voqea-hodisalarning nomini bildiruvchi soʻzlar istorizmlar¹ deyiladi. Masalan: *omoch, bakovul, yasovul, qozi, qozixona, bek, vasiqa, gumashta, meshkop, jigʻador* kabi.

Istorizmlar – oʻzi anglatgan narsa va hodisalarning yagona atamasi. SHuning uchun hozirgi tilda oʻrnini bosa oluvchi sinonimlari boʻlmaydi. Masalan: Hamzaning «Bitsin endi eski turmush, ul kulohu jandalar» misrasidagi *kuloh, janda* soʻzlari kabi. Istorizmlar shu xususiyati bilan arxaizmlardan keskin farqlanadi (eskirgan soʻzlar iborasi bularning ikkalasi uchun umumiy nomdir).

Istorizmlar, asosan, oʻtmish voqeligini atashda ishlatiladi. Lekin *vasiqasi yoʻq (odam); oʻziga xon, oʻziga bek* kabi xalq iboralari tarkibidagi tarixiy soʻzlar (*vasiqa, xon, bek*) oʻtmishdagi narsa va hodisalarning nomlari boʻlib, ularning maʼnolari iboradan anglashiladigan majoziy maʼnoga singib ketgan.

Bunday oʻrinlarda, baʼzan, umum uchun yot boʻlgan tarixiy soʻzlarni umumisteʼmoldagi soʻzlarga oʻxshatib olish hodisasi («xalq etimologiyasi» hodisasi) ham uchraydi. Masalan: *san solor, man solor, otga bedani kim solar* iborasi xalq etimologiyasiga uchrab, *san solor, man solor, otga bedanani kim solor*

¹ Istorizm-grekcha – historia – «tekshirish», «tadqiqot» demakdir.

shaklini olgan. Bu erda *solor*¹ tarixiy soʻzi umumnutqdagi *solor* (solmoq) feʻliga oʻxshatib, tenglashtirib qoʻyilgan. Tilda *sansolarlik* soʻzining shakllanishi ham yuqoridagi ibora taʼsirida voqe boʻlgan: *san solor – sansolarlik*.

Istorizmlardan tarixchilar, olim va yozuvchilar tarixiy voqea va hodisalarning real tasvirini berish, badiiy asarga tarixiy ruh baxsh etish uchun foydalanadilar. Masalan: *Qorani oqlash hech bir podshoning yosasiga sigʻmaydi* (O.) gapida yosa tarixiy soʻz boʻlib, «*qonun, tartib*» maʼnolarini bildiradi.

Bozorni aylanib yuradigan poyaki voqeadan boshdan-oyoq xabardor ekan (A.Q.) Ilgarigi vaqtda bozor va rastalarda chilim chektirib yuruvchi kishini *poyaki*, der edilar.

Neologizmlarning uslubiy vazifasi. Adabiy til doimo yangi soʻzlar - neologizmlar bilan boyib boradi. Neologizmlar ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatda boʻladigan oʻzgarishlar, fan-texnika yangiliklari, sanʼat, adabiyot va publitsistikadagi yangicha tushunchalar – umuman, jamiyatning, hayotning talab-ehiyoji bilan paydo boʻlgan soʻzlardir: *novator, changlagich, purkagich, izchil, ziyokor, biznes, tadbirkor, ishbilarmon, fermer, aksiya* va boshqalar.

Neologizmlarning paydo boʻlish yoʻllari xilma-xil:

1. Tilning mavjud leksik tarkibi va grammatik qonun-qoidalari baʼzasida yangi soʻz yasash yoʻli bilan. Bunda soʻz yaxlitligicha neologizm boʻladi: *payvandchi (metall oʻlchovi), ustqurma («nastroyka» maʼnosida), choʻlquvar (boʻz erlarni oʻzlashtiruvchi maʼnosida)*.

2. Tildagi mavjud soʻzlarning leksik maʼnolaridan birini yangi maʼnoda qoʻllash yoʻli bilan. Masalan: *choʻmich* soʻzining «*kovsh*» maʼnosi kabi: *Ekskavatorning choʻmichi shu uyumlardan osha yangi tuproqlarni irgʻitdi*.

3. Boshqa tildan (asosan, rus tilidan) soʻz qabul qilish yoʻli bilan. Boshqa tildan soʻz ikki xil usul bilan olinadi:

a) aynan qabul qilinadi: *kosmonavt, samolyot*;

¹ *Solor* – tarixiy soʻz boʻlib, boshliq, rahbar maʼnosini bildiradi. Masalan: *sipoh-solor* – lashkar boshligʻi. Qarang: Uzbeksko-russkiy slovar. Moskva, 1959, 77-bet.

b) kalkalash yo‘li bilan olinadi: *o‘zibo‘larchilik (samatyok), er yo‘ldoshi (sputnik zemli), odimlovchi ekskavator (shagayushiy ekskavator), ko‘targich kran (pod’yomniy kran)* kabi.

Kalka usulini oddiy tarjimadan farqlash kerak. Kalkalashda boshqa tildan o‘zlashtiruvchi tilga taqlidan nusxa olish asosida neologizm yaratilsa, oddiy tarjimada esa boshqa til so‘zi avvaldan mavjud bo‘lgan o‘z so‘zlar bilan beriladi.

Nutqda neologizmning uslubiy vazifasi juda rang-barangdir. Ilmiy-texnik, rasmiy adabiyotlardagi umumtilga xos neologizmlar asosan nominativ funksiyani bajaradi, badiiy adabiyotda esa muayyan uslubiy maqsadda qo‘llaniladi. Bu, birinchi navbatda, katta ta‘sir va tasvir kuchiga ega bo‘lgan individual nutq neologizmlariga taaluqlidir. Bunga yozuvchilar ijod qilgan yangi so‘zlar misol bo‘ladi.

G‘afur G‘ulom so‘z ijodchiligida so‘zlarni qo‘shish yo‘li bilan yaratgan *mehnatobod, urushtalab, insonzod, xushaxloq* kabi neologizmlar o‘zining ifodaviyligi bilan ajralib turadi. Shoir yana –dosh qo‘shimchasi yordamida *eldosh, erdosh, kurashdosh, qalamdosh* kabi so‘zlarni ijod qiladi.

Yozuvchilar yaratgan individual nutq neologizmlari ba‘zan satirik tasvir vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, quyidagi misollarda rasmiy-idoraviy nutqqa oid shablon so‘zlar: *ocheredchilik, oshxurchilik* matnga yumoristik ruh kiritgan: *Ro‘yhatdagi mana shu kamchiliklar tuzatilsa, bu narsa hozirgi ocheredchiligimizda ijobiy rol o‘ynashi, xaridorlarimiz orasida tarbiyaviy ish olib borishda alohida ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin bo‘lsa kerak, deb o‘ylamiz (A.Qahhor). Keyingi paytlarda oshxurchiligimizda yana bitta yomon xususiyat sezilmoqda (S.Ahmad).*

Ba‘zan adabiy til ruhiga yot bo‘lgan, o‘rinsiz yasalgan neologizmlar ham uchrab turadi: *Terilgan paxtani tashib turish uchun ko‘taruvchi ajratildi.*

Neologizmlarning tildagi barcha tiplarini baholash va ishlatishda mumtoz yozuvchilarimiz qoldirgan boy merosni qunt bilan o‘rganish zarur.

Boshqa tillardan kelgan soʻzlar va ularni ishlatishdagi uslubiy imkoniyatlar. Tilning boshqa tillardan olingan soʻzlar hisobiga boyishi juda qadimiy hodisadir. Buning sababi xalqlar oʻrtasida qadimdan ijtimoiy-siyosiy munosabat, madaniy aloqa va hamkorlikning mavjudligidir.

Odatda, boshqa tildan oʻtgan soʻzlarning baʼzilari soʻz oluvchi tilning ichki taraqqiyoti qonuniga, uning ayrim grammatik qoidalari va talaffuz meʼyorlariga boʻysunadi, moslashadi, baʼzilari asl holatlarini saqlab qolsa, baʼzilari jiddiy oʻzgarishga uchraydi. Masalan: tojikcha *panjishanba*, *ruybaruy* soʻzlari *payshanba*, *roʻpara* shaklida, arabcha *hilat* soʻzi *halat* tarzida qoʻllanadi. Oʻzbek tili lugʻatiga ilgaridan oʻrnashib olgan tojikcha soʻzlar aniq narsa va predmetilarni ifodalaydi: *Daraxt*, *qogʻoz*, *sartarosh*, *sozanda*, *miskar*, *gʻoʻzapoya*, *sholipoya*, *paxtakor*, *dasht*, *devor*, *daryo*, *poytaxt*, *maydon*, *meva*, *mevazor*, *shudgor* va boshqalar.

Oʻzbek tilidagi arabcha soʻzlar maʼno jihatidan koʻproq mavhumlikka ega: *xol*, *haqiqat*, *hurmat*, *imkoniyat*, *adabiy*, *fahriy*, *maʼnaviy ehtiyoj*, *istiqbol*, *daraja*, *ahamiyat*, *masʼuliyat*, *sharaf*, *iroda*, *taʼlim* kabi.

Oʻzbek tilining tarixiy taraqqiyotida rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlar asosiy oʻrinni egallaydi. Hozirgi oʻzbek tilida rus tilidan oʻzlashgan soʻzlar oʻzbek adabiy tilida juda keng ishlatiladi. Masalan: *stol*, *samovar*, *ruchka*, *vilka*, *gudok*, *duxovka*, *pechka*, *sud*.

Bulardan tashqari oʻzbek tiliga rus tili orqali Evropa xalqlari tillaridan ham juda koʻp soʻzlar oʻzlashtirildi. Bunday baynalminal soʻzlarga grekcha va lotincha *logika*, *grammatika*, *biologiya*, *dekan*, *konus*, *drama*, *iyul*, *avgust*, *xor*, *teorema*; inglizcha *sport*, *tennis*, *rels*, *voleybol*, *futbol*; nemischa *galstuk*, *buxgalter*, *fartuk*, *stul* kabi soʻzlar misol boʻladi.

Boshqa tillardan oʻzlashtirilgan, xalq ommasi oʻrtasida keng isteʼmolda boʻlgan bunday soʻzlar oʻzbek tili lugʻatidan mustahkam oʻrin olgan.

Boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirishning usul va yoʻllari, ularning tillarga kirib qolish sabablari va singish darajalari kabi masalalar lefikologiyada

o'rganiladi. Leksik stilistika esa o'zi mansub bo'lgan tilga xos belgisini saqlab qolgan so'zlarning ishlatilish shart-sharoitlari va uslubiy vazifalarini tekshiradi.

Hozir boshqa til so'zlari ko'pincha bosma manbalarni tarjima qilish hamda kundalik matbuot orqali o'zlashayotgani sababli ular butunlay kitobiylik rangiga egadir. Bundan umum ishlatiladigan so'zlarga aylanib ketgan *gazeta, jurnal, kino, bilet, kassa, traktor, gaz* kabi so'zlar mustasno, chunki bu so'zlarning leksik ma'nosi barchaga tushunarlidir.

Ma'lumki, ona tilidagi so'zning ma'nosi uning morfologik tarkibidan aniq anglashilib turadi. SHuning uchun ona tilidagi so'zlar, garchi ba'zan ular umumiste'moldagi so'zlar bo'lmasa ham, shu til egalariga tushunarli bo'ladi. Bunday so'zlarning o'zak va affikslari shu tildagi boshqa so'zlarda ham uchraydi. Masalan, *paxtachilik, ustqurma, shartnoma, ko'zgu*.

Olinmalarning ma'nosi va morfologik tarkibi ona tilidagi so'zlar singari aniq anglashilib turmaydi. Ularning ma'nosini morfemalari tarkibidan anglab olish ham murakkab. SHuning uchun o'zlashgan so'zlarning o'ziga o'xshash boshqa bir xil so'zlar bilan o'zakdosh so'z ekanini anglab ololmaymiz.

Chunonchi, o'zbek tiliga rus tili orqali o'zlashgan fransuzcha *kupe (temir yo'l vagonlarida ayrim xona)* va *kupon (qimmatbaho qog'ozlarning foizini to'lashda kesib olinadigan qismi, taloni)* so'zlari aslida «qirqilgan, kesilgan» ma'nosida bir o'zakka mansub ekanini izohlashni hatto hayolimizga ham keltirmaymiz. Ko'rinadiki, olinmalarning ichki aloqalarini sezish imkoniyati birmuncha cheklangan bo'ladi.

O'zlashgan so'zning ko'pincha kitobiylik bo'yog'iga ega bo'lishi va leksik ma'nosini morfemalari tarkibidan keltirib chiqarish mumkin bo'lmasligi kabi hatolar uning ona tilidagi so'zdan farqlanuvchi belgisi sanaladi.

Chet til elementlari va o'zlashtirma so'zlar, ayniqsa, badiiy adabiyotda uslubiy maqsadda juda keng qo'llaniladi. Badiiy nutqda chet til leksikidan ko'pincha yozuvchilar obraz va personajlar nutqini individuallashtirishda

foydalanadilar. Masalan, quyidagi misralarda shoir Muqimiy tojik va rus millati vakillarining nutq kaloritini chizadi:

*Qochib ketdi machchoyilar aksari,
Borib shulki yurtiga ta'kidlari:
-«Sareki o' boshadash, zinhor,
Daronjo marav, memuri. Ey tabor».
Dubora yana bordi bir ishga shul,
So'kib, -«Net, -dedi, -kelma, durrak, poshul».*

Badiiy va publitsistik asarlarda uchraydigan ekzotik¹ so'zlarning chet tilga mansublik bo'yog'i kitobxonda o'zga yurt, uning xalqi, urf-odatlar, turmushi, madaniyati, tabiati, umuman «mahaliy kaloriti» haqida tasavvur hosil qiladi. O'quvchi *lord, ser, leyborist* so'zlarini uchratish bilan gap Angliya haqida borayotganini angelaydi:

*-Yo'q, Yo'q, janobi oliylar, lordlar, marshall, cherchillar,
Do'qingiz qilolmas ijodimizni barbod.*

*Qisqagina, suhbatdan lord shuni bildiki, bu kamgap, ko'zlari zaif odamni
o'z yo'liga kiritish oson emas ekan.*

Hozirgi o'zbek tilida o'zlashma qatlamga oid so'zlar miqdori kun sayin ortib bormoqda. O'zbek tili lug'atida iqtisodiy-siyosiy va madniy hayotimizga oid, fan va texnikaga doir bo'lgan murakkab tushuncha va tasavvurlarni ifoda etuvchi bunday qatlam o'z mavqeini yanada kuchaytirmoqda.

2. Qo'llanish doirasi chegaralangan leksikaning uslubiy xususiyatlari

Dialektizmlar. O'zbek tilining dialektal qatlami nihoyatda murakkab va rang-barang bo'lib, u o'z ichiga bir qancha sheva va dialektlarni qamrab oladi. Bu sheva va dialektlarning har biri o'ziga xos fonetik, leksik-grammatik xususiyatlari bilan adabiy tildan, o'zaro farqlanadi.

Dialektizmlarning adabiy tildan farqi, avvalo, so'zning talaffuzida ko'rinadi. Masalan: *gurgurt-gugurt, bala-bola, yuzum-uzum, yig'namoq-yig'moq*, kabi.

¹ Ekzotika yunoncha «exoticos» - ajnabiy demakdir.

Bundan tashqari, adabiy tilga nisbatan dialektizmlarning lugʻat tarkibi birmuncha oʻzgacharoqdir. CHunonchi, mahalliy dialektizmlar lugʻatida fan, sanʻat va murakkab texnikaga oid maxsus atamalar kam, deyarli yoʻq boʻladi, dialektlardagi baʼzi soʻzlar esa adabiy tilda butunlay boʻlmasligi mumkin. Bunday soʻzlar shu dialekt vakillari nutqida ishlatiladi. Masalan, *varray* (Toshkent dialektida), *bodpark* (Buxoro dialektida), *shohin* (Samarqand dialektida), *bodrak* (Xorazm dialektida) kabi.

Oʻzbek shevalari lugʻatida yana shunday soʻzlar uchraydiki, bular adabiy tilda boshqa soʻz bilan ifodalanadi: Andijon shevalarida *buvak* (chaqaloq); Xorazm shevalarida *erqanot* (koʻrshapalak), *tartanak* (oʻrgimchak), *suzak* (choʻmich), *adrasman* (isiriq); Buxoro shevalarida *ashmishka* (*bir yumaloq choy*).

Baʼzan dialektdagi soʻz adabiy nutqdagi soʻz bilan tovush talaffuzi jihatidan oʻxshash boʻlmasa-da, maʼnosiga koʻra farqlanadi. Masalan, *buvi* – bir dialektida ruscha «mat», ikkinchi bir dialektida ruscha «babushka» maʼnosini bildiradi. SHuningdek, *oq choy* – Toshkent dialektida «sut qoʻshib oqlangan choy»ni bildirsa, Fargʻona dialektida «koʻk choy»ni anglatadi.

Mahalliy koloritni berish zarurati bilan qoʻllangan bunday dialektizmlarning qavs ichida adabiy tildagi variantini berish maqsadga muvofiqdir. Masalan: *Ularning hammasi Oltinkoʻlda ishlasa-da, eshigi (hovlisi) Andijonda. Chivin (pashsha) yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi hasharot ekanini esdan chiqarmang.*

Adabiy tilning ayrim dialektlar lugʻaviy birliklari hisobiga boyib borishi tillar taraqqiyotida qonuniy bir holatdir. Hozirgi adabiy nutq lugʻatining bir qismi ham aslida dialektlarga mansub boʻlsa-da, adabiy nutqqa xos, deb qaralishining sababi bunday lugʻaviy birliklarning umumlashib ketganligidadir.

Dialektizmlarni quyidagi holatlarda adabiy nutqqa olib kirish mumkin: agar u yoki bu mahalliy tushuncha umumtilda aniq nomga ega boʻlmasa yoki uning shevadagi atamasi leksik maʼno ottenkasi bilan, uslubiy boʻyogʻi bilan umumtildagi soʻzdan farqlanib tursa, uning adabiy nutqqa kirishi toʻgʻridir.

Masalan: adabiy nutqda qo‘llanayotgan *elvizak (elgizak)* so‘zi shimoliy o‘zbek shevalariga xos birlikdir.

Biror dialektal so‘zning adabiy nutqqa ko‘chish hodisasi bilan dialektal so‘zlarning badiiy asarda ishlatilishi hodisasini bir-biridan farqlash zarur. Yozuvchilar o‘z asarlarida hayotning realistik tasvirini chizish, mahalliy koloritni berish, personajlar nutqini individuallashtirishda yoki biron tushunchaning shevadagi atamasi kitobxonga ahamiyatli bo‘lgan holatning ma‘lum mahalliy belgisini bildirsagina dialektal so‘zlardan foydalanishlari mumkin. Sheva so‘zlarining mana shunday vazifalarda ishlatilganini A.Qahhorning «O‘tmishdan ertaklar» nomli sarguzasht qissasidan olingan parchada kuzatish mumkin.

1. ...tor ko‘prikning ustida bo‘riq yotgan ekan, shuni tepib zovurga tushirmoqchi bo‘lganimda ikkala oyog‘im ko‘tarilib ketdi shekilli, yiqildim, zovurga tushib ketdim. ...Anhor ko‘prigidan oyog‘imni osiltirib o‘tirib, pesa eb o‘tirganimda birdan ko‘nglim to‘ldi-yu, ko‘kragimdan yig‘i o‘rniga bir kuy otilib chiqdi. Doktor xotin dadam ikkovimizni ayamning chap tomonidagi kichkina sim karovat oldiga boshlab bordi va oq ro‘yjaning bir chekkasini ko‘tardi. Uning ostida buvak-ukacham ko‘zlarini chirt yumib, qovog‘ini solib yotardi.

Matnlarda ishlatilgan sheva so‘zlarining adabiy tilda muqobili bo‘lmaganligi uchun yozuvchi ularga sahifa ostida izoh ham beradi: *bo‘riq* - jo‘xoripoyaning bir bo‘g‘ini; *pesa* – chala pishgan, dumbul o‘rik; *buvak* – chaqaloq; *ro‘yja* esa «prostina» ma‘nosida qo‘llangan. A.Qahhor «O‘tmishdan ertaklar»ida adabiy tildagi so‘zdan talaffuziga ko‘ra farqlanuvchi *vahmak (vahimachi)*, *urpoq (urvoq)*, *sepsildi (tovsildi)*, *ziqnov (qistov)* kabi sheva so‘zlarini ham ishlatadi.

Har qanday adabiy tilning taraqqiyoti, boyishi adabiy til bilan shevalar o‘rtasidagi munosabatlarning bir-biriga ta’sir qilish darajasiga bog‘liq. Shuning uchun dialektizmlarning badiiy asarda qo‘llanilishini hamda ularning adabiy tilga o‘tish-o‘tmasligini konkret-tarixiy sharoitlarga ko‘ra izohlash zarur.

Madaniy hayotimizda adabiy tilning mavqei, ta’siri kuchayib borgan sari ayrim sheva so‘zlari va iboralarining qo‘llanish doirasi ham zaiflasha va yo‘qola

borishi tabiiydir. SHu jihatdan ba'zi adabiy nutq, ayniqsa, vaqtli matbuot tilida ayrim sheva xususiyatlarining davom etib kelayotganini normal hol deb bo'lmaydi.

Mashhur so'z ustalari til haqidagi maqolalarida tushunib bo'lmaydigan mahalliy sheva so'zlariga o'z munosabatini bildirar ekan, *tilni ortiqcha, g'alati so'z chiqindilari bilan to'ldirib yubormaslikni qat'iy talab qilgan edilar. Ammo bundan mahalliy sheva so'zlarini ishlatmaslik kerak, degan ma'no kelib chiqmaydi. Sheva so'zlari asarda o'z joyini topgan bo'lsa, tilni boyitishga xizmat qilsa, uni adabiy tildagi so'z bilan almashtirish qiyin bo'lsa yoki iloji bo'lmasa qo'llash mumkin.*

Kasb-hunar va atamalar leksikasidan uslubiy maqsadda foydalanish. Tildagi kasb-hunarga mansub bo'lgan so'z va iboralar professionalizmlar deb yuritiladi. Masalan, *andava, gazcho'p, vassa* kabi so'zlar suvoqchilikka oid bo'lsa, *biliska, chega, boshliq, seplama, mixcho'p, shoncho'p* kabilar poyabzaldo'zlik hunariga oid professional so'zlardir.

Bundan tashqari o'zbek tilida xalqimizning qadimiy ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan dehqonchilik, chorvachilik va mayda hunarmanchilik (miskarlik, kulolchilik, me'morchilik, zargarlik, bo'zchilik, etikdo'zdlik, duradgorchilik, suvoqchilik) kabi kasb-hunarga doir so'z va iboralar ham bor. Har qaysi joyning mahalliy kosib va hunarmandlarining ishlab chiqarish qurollarida va mehnatni bajarish usullarida farqlar bo'ladi. Bu farqlar ularning leksikasida ham aniq seziladi. Chunki ularga mahalliy dialekt va shevalarning ham ta'siri bor.

Termin ilm, fan, texnika, san'at, madaniyat va shu kabi sohalardagi ma'lum tushunchalarning aniq, konkret, bir ma'noli ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasidir. Masalan: *karta, atlas, globus, materik, ko'rfaz, o'zan, dara, tizma tog', yassi tog'* kabilar geografik atamalardir.

Atamalar ma'lum bir aniq tushunchani ifoda etadi. Ular dialekt va shevaga oid so'zlardagi kabi fonetik, leksik va morfologik ko'rinishlariga ega bo'lmaydi. Atamalar, odatda, barcha sheva vakillari uchun umumiy bo'ladi va kasb egasi

tomonidan qaysi hududda yashashidan qat'iy nazar, hamma joyda bir xilda qo'llanadi va yoziladi.

Atamalarining adabiy tilga kirib kelishida vaqtli matbuot va adabiyotning roli juda katta. Ko'pgina atamalarlarning ommalashuvida joylardagi gazeta va jurnallar bilan bir qatorda A.Qahhorning «*Qo'shchinor chiroqlari*», «*Sinchalak*» kabi asarlari muhim rol o'ynadi. Matnda tushunilmaydigan ilmiy-texnik terminlarning haddan tashqari ko'p uyib yuborilishi vaqtli matbuot materialining yorqin va mazmundor, tilining to'la tushunarli va ommabop bo'lishiga putur etkazadi. Adabiy tilning ommaga oson tushunarli bo'lishi va tozaligi uchun kurashgan yozuvchilardan biri «texnika terminlarini suiiste'mol qilish yaramaydi» deb alohida ta'kidlagan edi.

Ayrim ixtisosga oid terminlarga izoh bermay o'tish xato, bu mutaxassislikka doir ilmiy-texnik adabiyotlarda ham xato hisoblanadi (ayniqsa, ommabop adabiyotlarda va publitsistikada). Gazeta va jurnallarda quyidagi matnlardagi kabi hech qanday izoh va tushuntirishsiz qo'llanilgan terminlar uchrab qoladi: *Bu svecha zazorlaridan suyuqlik ichida ham uchqunlar chiqayotganligi ko'rinib turadi (Gazetadan).*

Til an'alariga nomuvofiq, o'rinsiz yasalgan terminlarni ishlatish ham uslubiy nuqson sanaladi. Masalan: *...Volgograd oblastidan «Qiltiriqsiz-1» ataladigan eng yaxshi bug'doy urug'i bizga etkazib berildi (Gazetadan).*

Fan va texnikaga oid va ilmiy-ommabop kitoblar tilini, fikr bayonini sodda qilish asarning ilmiy qiimmatini pasaytiradi, deb noto'g'ri tushunmaslik kerak. Odatda, «o'ta olimona» til bilan ifoda qilingan oddiy narsalar va hodisalar, ko'pincha, murakkab va tushunarsiz bo'lib qoladi.

Kanselyarizmning qo'llanish doirasi. Rasmiy uslubga xos so'z va nutq oborotlari kanselyarizm deyiladi. Qonun, buyruq va ish-xizmatiga doir yozishmalar, chaqiriq qog'ozlari, taklifnomalar, telegrammalar tilida umumnutqqa xos vositalardan tashqari, rasmiy uslubga xos maxsus so'z va qolipdagi tayyor

formulirovkalar (*yuqoridagi ko'rsatilgan, quyidagi bayon qilingan, maqsadga ko'ra, javoban, e'tiborga olingan holda kabi*) keng qo'llaniladi.

Kanselyariya qog'oz va hujjatlaridagi qat'iy shaklga kirgan bunday tayyor so'z va iboralar matnga alohida rasmiylik ottenkasini beradi. Masalan: *...sohasida erishgan juda katta muvafaqiyatlari uchun ...unvoni berilsin; ...belgilangan tadbirlarni qarab chiqdi va ma'qulladi; ...keng joriy qilish vazifasi topshirildi; ...qarorlarini amalga oshira borib kabi.*

Kanselyarizmlar o'zi aloqador bo'lmagan boshqa nutqda qo'llansa, matn yo'nalishiga boshqacha uslubiy tus kiritadi. Masalan: *Ishchilarga kino xizmatini ko'rsatish talab darajasida emas (Gazetadan). ...paxta chaman-chaman ochilganiga qaramasdan, terim mashinalari to'la quvvat bilan ishlamayotir (Gazetadan).*

So'zlarni keraksiz o'rinlarda takrorlayverish ham nutqni g'alizlashtiradi. Masalan: *ya'ni, demak, bevosita, aytaylik, xullasi kalom, umuman aytganda – olganda, asosan, shuni aytish kerakki, shunday qilib, asosiy masala kabi* so'z va iboralar me'yoridan ortiq qo'llanganda «parazit» so'z hisoblanadi.

SHablon so'zlar, odatda, o'z juftlariga – doimiy sifatlovchilariga ham ega bo'ladi. Masalan: «*chora*»ni «*amaliy*», «*vazifa*»ni «*aniq*» yoki «*konkret*», «*ma'qullamoq*»ni «*qizg'in*» kabilar bilan yonma-yon qo'llanuvchi doimiy juftlari bor.

Bir xildagi so'z va iboralarni uzluksiz takrorlayverish ham nutqni siyqalashtiradi. Misollar: *...kolxoz dalalarida ertagi ekinlar parvarishi qizg'in boryapti. Kunlar esib, erlar etila boshlashi bilan ekin maydonlari tekislanib, ertagi ekinlarni ekish boshlab yuboriladi. Jamoadoshlar ertagi ekin ekish rejasini qisqa vaqtda bajarishdi. Ertagi ekinlar parvarishi qizg'in borayotgan shu kunlarda hamma dalada (Gazetadan).*

SHunday faktlar ham borki, *baliq xo'jaligi tashkilotlari baliq ovlash rejalarini baliq ovlaydigan kemalarning baliq ovi va texnika imkoniyatlaridan ataylab past qilib belgilamoqdalar (Jurnaldan).*

Gaplarni ixcham va silliq tuzish katta ahamiyatga ega. Ortiqcha ezmalik bilan gapni cho‘zib yuborish fazilat sanalmaydi.

Kanselyarizmlar ko‘pincha satira va yumorda stilistik priyom sifatida qo‘llanadi. Bu priyomda A.Qahhor o‘zining hikoya va feletonlarida juda ustalik bilan foydalanadi. Hikoyalaridan birida tasvirlangan notiq o‘z uyida xotini bilan quyidagi rasmiy-idoraviy til bilan gaplashadi: *...ikkinchi masala, ya’ni ichki imkoniyatlardan foydalanish masalasini olaylik. O‘zingizga ma’lum, bizda yuqori sifatli mis choynak bor. Bu choynakning qopqog‘i bugungi kunda yo‘q. Bu haqida biz bir-birimizga signal berdikmi. O‘, Yo‘q! Agar biz o‘zibo‘larchilikka uzil-kesil barham berib, qopqog‘ masalasini kun tartibiga ko‘ndalang qo‘ysak, agar biz shu choynakni o‘z vaqtida tegishli qopqog‘ bilan bevosita ta’min qilsak, samovarimiz safdan chiqqan kunlarda hal qiluvchi rol o‘ynardi. Afsuski, biz bu masalaga murosasozlik ko‘zi bilan qaradik. Bugungi kunda choynagimiz qopqoqqa ega emas, mutlaqo ega emas!*

Jargon so‘zlar. Umumxalq tilidan farq qilib, biror ijtimoiy guruh o‘rtasida va ularning talablarini ifodalovchi maxsus so‘z va iboralarga jargon deyiladi.

Jargonlarning eng xarakterli belgisi o‘zaro so‘zlashuvda fikrni boshqalardan maxfiy, sir tutishdir. SHunga ko‘ra jargonlarning yaratilish yo‘llari ham ko‘pincha tilning so‘z yasash sistemasiga to‘g‘ri kelmaydi. Ular o‘ziga xos, shartli so‘zlardir. Jargonlar ko‘pincha tildagi so‘zlarning tovush tomonini o‘zgartirish, buzib qo‘llash, boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish va tildagi mavjud so‘zlarga maxsus ma’no berish yo‘li bilan hosil qilinadi.

Jargonlarning biror kishi yoki tabaqa doirasida paydo bo‘lishiga qarab ikkiga ajratish mumkin: professional jargonlar va ijtimoiy jargonlar.

Professional jargonlarga biror kasb-hunar kishilari orasida ishlatiladigan maxsus so‘z va iboralar kiradi. Bu xil jargonlarning paydo bo‘lishi, odatda, ishlab chiqarish ixtisosi, mehnatning umumiy sharoiti va ba’zan turmush-madaniyat tarzlari bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Professional jargonlar ijtimoiy jargonlardan manfiy (nomaqbul) ma'no ifoda qilishi va ba'zan vulgar xarakterga ega bo'lishi bilan farqlanadi. Masalan: aravaso'zlar nutqidagi *so'log'ini o'ynatmoq, chuvini chiqarmoq*; otga ishqivozlar nutqidagi *dumini qo'qoncha qilib tugmoq, dumini tugmoq*; kaptarboz va bedanavozlar nutqidagi *dumini setara qilmoq, qatiq pariga tegmoq, qatiq parini olmoq*; tuya karvoni haydovchilar nutqidagi *chang'arog'ini tushirmoq* iboralari kelib chiqishi jihatidan jargonga borib taqaladi.

Kasbiy jargonlar orasida umumxalq tilidagi so'zlarning ma'no tomonini sun'iy ravishda o'zgartirib yasalgan maxsus so'z va iboralar bor. Masalan: *ellik olti (ipak), qizil (oltin), tish (guruch), qaychi (revizor), suv qilmoq (molni birovga oshirmoq, sotmoq)* kabi yashirin so'z va iboralar tekinxo'rlar, olibsotlar, chayqovchilarga mansub jargon so'zlardir.

Ijtimoiy jargonlarga o'tmishdagi saroy doirasiga mansub bo'lgan yuqori mansabdorlarning hamda din ahllarining dabdabali, balandparvoz nutqlari – kitobiy tili yorqin misol bo'ladi. Masalan, oddiygina *keling o'rniga tashrifi qudum eting, qarang o'rniga tavajjuh aylang, o'ldi, vafot qildi o'rniga fano selobiga g'arq bo'ldi, ilohimning dargohida maqtul etildi*, deb aytish saroy va din ahllari nutqiga xos bo'lib, ular ana shunday yasama balandparvozliliklari bilan o'zlarining xalqdan yuqori turganliklarini ko'rsatishga harakat qilganlar. Bu, bizning ta'birimizcha, nutqda soddalik o'rniga soxta, yoqimsiz chiroyliklar topishga intilishdan boshqa narsa emas, albatta.

Ijtimoiy jargon o'zbek tilida *abdol tili* deb ham yuritilgan. Qadimda professional maddohlar va qalandarlar o'z niyatlarini xalqdan yashirish maqsadida o'zlari uchungina tushunarli bo'lgan *abdol*¹ tilidan foydalanganlar.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashmay tekinxo'rlik, boshqalar hisobiga yashashlik, maishiy buzuqlik yo'lga kirib ketgan guruhlar (o'g'rilar, qimorbozlar, dallollar, kisavur va shu kabi jinoyatchi kishilar) ham o'zlarining maxsus jargonlariga ega. Bunday ijtimoiy jargonlar *argo* deb ham yuritiladi. Masalan: *loy*,

¹ Abdol – tokvador, hudojo'y demakdir. Qarang: «Uzbeksko-russkiy slovar». Moskva, 1959, 19-bet.

yakan (pul), bedana (to'pponcha), pero (pichoq), molam bu (bor), noyyo (yo'q), dar (go'zal), shashbil (palov) kabi.

Xalqni aldovchi, firibgar dallollar ham molning narh va qimmatini mahfiy tutish maqsadida sanoq sonlarni sun'iy ravishda quyidagicha ataganlar: nosir (yarim soni), sari (bir - 1), piyoz (2), giri (3), gapa (4), nimsari (5), kapara (6), giri kam (7), piyoz kam (8), arra kam (9) va boshqalar. Bu ijtimoiy guruhlarining o'ziga xos sun'iy ifoda vositalarini – maxsus so'z va iboralarni keng xalq ommasi tushunmaydi.

Jargonlar va argolar tilni bulg'aydi. Tilning sofliigi va tozaligi, aniqligi va ravshanligi uchun kurash jargonlarga qarshi kurashni ham taqazo qiladi. Lekin badiiy adabiyotda uslubiy maqsadda jargonlardan qisman foydalaniladi.

Jargonlar ma'lum ijtimoiy tabaqa yoki guruhlar o'rtasida tarqalganligidan ular shu toifa kishilari nutqini berish vositasi sifatida ishlatiladi. YOzuvchi SHotursun G'ulomovning «Jon kuydir» sarlavhali adabiy materialidan keltirilgan quyidagi parchaga e'tibor bering:

Birinchi yigit esa mushukdan qo'rqan sichqondek atrofga olazarak bo'lib oldi-da, menga engashib sekin shipshidi:

-Bilasanmi, bizning jamoada...

U gapning oxirini ayta olmadi. Sherigi to'satdan: «xit»... rais... qoch... dedi va sakrab o'rnidan turib, choyxona orqasiga o'zini urdi.

«Qorilik» parolijasida ahloqiy buzqlik yo'liga kirgan ruhoni-yori o'z nutqida *qaymoq, aroq, pivo, konyak, musallas, kolbasa, shashlik, likyor, lag'mon* kabi so'zlarni arab tilidagi yasovchilarga taqlidan tovush tomonidan o'zgartirib, ularga jargonoma tus beradi: *Qori: - Billahu tavfiqun etti yog'liq patiru nallazina kafaru qaymaqun to'qqiz chalpakni olib keltiring... Qulyo ayyuhol kerak mehmonxonada arog'atun, pivaxum, konyakun, musallasusha'riyun, yog'liq kolbasatun xuvol vinou shashlikun minallikyoru vala'man (Gazetadan).*

Badiiy adabiyotda jargonlarning uslubiy maqsadda ishlatilishi haqida gap borar ekan, adabiyot xalqni badiiy jihatdan tarbiyalash quroli ekanini unutmaslik

kerak. Badiiy asar tili realistik tasvir qonunlariga bo'ysundirilgan, ya'ni individuallashtirilgan, tipiklashtirilgan bo'ladi.

Badiiy asarda tasvirlanayotgan va o'ziga xos hulq-atvoriga ega bo'lgan shaxs-ijobiy yoki salbiy qahramonning xarakteri va hatto voqealar rivojida u qadar muhim rol o'ynamaydigan personajning fe'li, tabiati ham ularning o'z nutqlari orqali beriladi. Yozuvchi tipik holatlarni saralab olishi va tasodifiy holatlardan holi bo'lishga alohida ahamiyat berishi lozim.

Badiiy individuallashtirish qahramon yoki personaj nutqida umumlashmagan, tasodifiy holatlarga, ayni o'rinda jargon so'zlarning ishlatilishiga tanqidiy munosabatda bo'lishni talab qiladi.

II B o b.

Ibora va maqollarning uslubiy xususiyatlari

Frazeologik iboralar va ularning turli nutq uslublarida ishlatilishi. Frazeologiyada tildagi turg'un – barqaror birikmalar o'rganiladi.

Odatda, so'zlarning birikuvi tufayli so'z birikmasi hosil bo'ladi. Bu so'z birikmalarining ba'zilari erkin bo'lsa, ba'zilari turg'un (barqaror) bo'ladi. *Oyoq uchida* birikmasi kontekstdan anglashilgan ish-harakatning imi-jimida, yashirincha, maxfiy bajarilganligini bildiradi. Birikma tarkibidagi har bir so'z o'z mustaqil ma'nosini saqlamagan, shunga ko'ra bu tarkibdagi so'zlar (komponentlar) barqaror, bo'linmas bir semantik birlikni hosil qilgan turg'un birikmadir.

Quyidagi gaplardagi *og'zi qo'log'ida, qo'l keladi, nonini tuya qilmoq* iboralari ham turg'un birikma sanaladi: Istar-istamas idoraga kirgan Bo'riboy bu erdan *og'zi qulog'ida* bo'lib chiqdi (H.Nazir). Biravarakayiga sakson ming dona g'isht pishiradigan bu firma jamoaga juda *qo'l keldi* (Gazetadan). Ibora tarkibidagi har bir so'zning ma'nosi tushunarli bo'lsa-da, ammo bu so'zlarning semantik bog'lanishi cheklangan, ularni boshqa biror so'z bilan almashtirish aslo mumkin emas.

Ko'p ma'nolilik hodisasi turg'un birikmalarga, ya'ni frazeologik iboralarga ham xos. Masalan, «O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati»da *bosh ko'tarmoq* iborasining 6 xil ma'no ottenkasi ko'rsatiladi.

Quyidagi iboralar bir necha ma'noga ega: yo'lga solmoq: 1) ketish tomoniga to'g'rilab jo'natmoq, yurgizmoq; 2) to'g'ri yo'lga qaytarmoq; 3) manfaatdor bo'lgani holda rag'batlantirmoq; 4) faoliyatini yaxshilamoq; bel bog'lamoq: a) shaylanmoq, o'tlanmoq; b) astoydil kirishmoq; 5) ahd qilmoq; tilga kirmoq: a) nutqqa ega bo'lmoq; b) ma'lum fursat o'tgandan so'ng gapira boshlamoq.

Frazeologik iboralarning ko'p ma'noliligi ularning sinonimik holati bilan bog'liq. Chunki u yoki bu iboraning yangi ma'nosi turg'un iboralar doirasida

yangidan-yangi semantik bog‘lanishlarni aniqlashga, frazeologik ma’nolar miqdorini kengaytirishga olib keladi.

Frazeologik iboralarning sinonimiya hodisasiga boyligi ulardan foydalanishda katta uslubiy imkoniyatlar yaratadi. Bu imkoniyatlarni, qisqacha, quyidagicha izohlash mumkin:

Frazeologik ibora alohida so‘z bilan sinonimik munosabat hosil etadi. Masalan: *tepa sochi tikka bo‘ldi* iborasi achchiqlanmoq, g‘azablanmoq so‘zlari bilan, *ko‘zi tor* iborasi qizg‘anchiq so‘zi bilan, *nonini tuya qilmoq* iborasi aldanmoq so‘zi bilan sinonimik holatda bo‘ladi.

Bir sinonimik uyani tashkil qiluvchi iboralar o‘zaro obrazlilik darajasi jihatidan farqlanadi. Masalan, *boshiga etmoq - boshini emoq* frazeologizmlari ayni bir ma’noni anglatadi, ammo obrazlilik darajasiga ko‘ra farq qiladi. Ikkinchi iborada «yo‘q qilmoq», «halok qilmoq» ma’nosi kuchli va qat’iyroq. *Boshi qotdi, boshi shishdi, miyasi g‘ovlab ketdi* iboralarining so‘nggisi ma’no darajasining kuchliligi, obrazliliigi va ifodaliligi jihatidan ajralib turadi.

Xuddi shuningdek, *mum tishlamoq, og‘ziga talqon solmoq, og‘ziga qatiq ivitmoq* sinonimik uyada ikkinchi va uchinchi iboralar birinchisiga nisbatan obrazliroqdir. Olib borilgan maxsus «kuzatishlar frazeologik sinonimlarning ko‘pincha obrazlilik darajasi farq qilishini ko‘rsatadi».

Frazeologik sinonimlar ham nutq ko‘rinishlariga xoslangan bo‘ladi. Bir sinonimik uyadagi iboralarning ba’zisi umumnutqqa xos bo‘lsa, ba’zisi boshqa biron nutq ko‘rinishiga xoslangan bo‘ladi. Masalan: *erga tegmoq, turmushga chiqmoq, erga chiqmoq* iborasining birinchisi rasmiy nutqqa, uchinchi esa so‘zlashuv nutqiga xoslangandir. Xuddi shuningdek, *oila qurmoq, turmush qurmoq, bir yostiqa bosh qo‘ymoq* iboralarining birinchisi va ikkinchisi rasmiy nutqqa, uchinchi so‘zlashuv nutqiga mansub. Quyidagi iboralarning birinchisi badiiy nutqqa, ikkinchi umumnutqqa oiddir: *bir yoqadan bosh chiqarmoq, bir jon bir tan bo‘lmoq*.

Frazeologik iboralar nutq ko‘rinishlariga qarab turli xil vazifada qo‘llaniladi. Ilmiy va rasmiy nutqda, ko‘pincha, nominativ funksiyani bajaradi. Bunga *qo‘l qo‘ymoq, qo‘l ko‘tarmoq, o‘rtaga tashlamoq, ovoz bermoq, ovozga qo‘ymoq, haddan oshmoq, fikri bir erdan chiqmoq* iboralari misol bo‘ladi. Badiiy adabiyot va publitsistik asarlarda dastavval turli ko‘rinishlarga mansub frazeologizmlarning ekspressiv-stilistik jihati va uning obrazliligi, ta’sirchanligi nazarda tutiladi.

Badiiy adabiyot va publitsistikada iboralarni ishlatish, qo‘llash yo‘llari juda xilma-xil. Yozuvchi va publitsistlar umumtildagi mavjud tayyor iboralardan unumli foydalanibgina qolmay, o‘zlari ham shular zamirida yangi iboralar yaratadilar. Bunda ular umumtil iborasi zamiridagi ma’noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o‘zgartish, uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma’nolar kiritish kabi usullardan foydalanadilar.

Yozuvchi Abdulla Qahhor «Qo‘shchinor chiroqlari» romanida rus tilidan o‘zlashgan *o‘z gazi bilan o‘lchamoq* iborasi asosida yangi ibora yaratadi. Bunda u ibora zamiridagi obrazni O‘rmonjonning fikriga muvofiqlashtirish uchun uning talqiniga «*o‘lchagani gazi yaramay qolmoq, eskilik qilmoq*» tarzida yangicha yo‘nalish, yangicha tus beradi. Natijada *tushunishiga o‘jizlik qilmoq*, degan ma’noni ifodalaydigan individual frazeologik neologizm vujudga keladi: *o‘lchagani gazi eskilik qilmoq*. Bu yangi ibora O‘rmonjonning fikrini obrazli qilib, yorqin ifodalash imkonini beradi.

Quyidagi matnda esa *loy bo‘lmoq* birikmasi erkin birikma, ham turg‘un birikma sifatida ishlatiladi:

-Ie, Ra’noxon, etagingizga loy tegibdimi? – so‘radim.

-Yo‘g‘e, qani? – deb etagini ushlagan edi, chappa loyga tegdi.

-Voy, loy qaerdan tekkan ekan-a? – dedi uyalib u... Lekin bu loyni yuvsan ketadi-ku, o‘zingiz loy bo‘lib qolmasangiz deyman...

-Nega endi men loy bo‘lar ekanman? – dedim jahlim chiqib, -shunday chiroyli qizlardan ham kesatig chiqar ekan-a... Tavba...

-CHiroyli qizlar ketidan soyadek ergashaverishingizni kelinoyim ko'rsa-chi, naq bir loy bo'lar edingiz, dedi. Terlab ketganimdan Ra'noxonning qaysi ko'chaga burilganini ham bilmay qolibman (Jurnaldan).

Umumtil frazeologik iboralardan Oybek, Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom va boshqa ko'pgina iste'dodli yozuvchilar o'z asarlarida mohirlik va ijodkorlik bilan foydalanganlar. Masalan, A.Qahhor «O'tmishdan ertaklar» qissasida To'raqul vofurushning juda ayyorligini, mug'ombir va quvligini ko'rsatish uchun *ilonni yog'ini yalagan* xalq iborasiga muqobil tarzda yangi ibora ijod qilgan: *-Pulni oldingiz, usta, bopand emang. Bu odam sof ajdah. O'likning yog'ini, tirikning tirnog'ini eydi bu !*

Quyidagi misolda *suvi qochgan (non)* iborasi yangi ma'no kasb etgan – salbiy baho ottenkasiga ega bo'lgan: *110 qadoqdan (Amerika o'lchov vaznida) oshishni gunoh sanagan daroz, taxtakach, suvi qochgan shilqim ayollarni ko'rganim sari bir kimsa, tabiatning tanti san'ati yaratgan bo'y-bast, bug'doy rangli bejirim chiroy... Meni bir zum ham tinch qo'yimas... (S.Azimov).*

Maqol, matal va hikmatli so'zlarning uslubiy vazifasi. So'z ko'rki bo'lgan maqol va materiallardan foydalanish har bir qalam ahlining so'z boyligini orttiradi, uning nutqini o'tkir va ta'sirli qiladi, unga badiiy jihatdan sayqal beradi.

Ulug' yozuvchilardan biri maqol va matallarning badiiy kuchi va qimmatini baholar ekan, «ularda butun-butun kitoblarning mazmuniga teng his-tuyg'ular ifodalangan» degan edi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari orasida nutq madaniyatini puxta egallashga, tilning qadr-qimmatini chuqur anglashga da'vat etuvchi maqol va matallar keng o'rin olgan. Bu turdagi maqollarda so'zning serma'no va o'tkir, fikrning qisqa va ixcham bo'lishi kabi muhim fazilatlar talqin qilinadi. Quyida bulardan namunalar keltiramiz: *Tilga e'tibor – elga e'tibor. Tilga hurmat – elga hurmat. Xalq so'zi - dengiz to'lqini. Til qilichdan o'tkir. Oldin o'yla – keyin so'yla. Yaxshi naql – tomiri aql. Yaxshi so'z – jon ozig'i, yomon so'z – bosh qozig'i.*

Ko'pgina maqollarda ortiqcha safsatavozlik, tilyog'lamalik qattiq qoralanadi, ixcham, qisqa va ma'noli gapirish, rostgo'y va shirin so'z bo'lish ulug'lanadi. *Gapning qisqasi yaxshi, qisqasidan hissasi yaxshi. Ko'p bilgan oz so'zlar, oz so'zlasa ham soz so'zlar.*

Badiiy adabiyotda maqol va matallar yozuvchi anglatmoqchi bo'lgan ma'noni obrazli qilib ifodalash uchun xizmat qiladi. Yozuvchilar personajning ichki dunyosini ochish va uning nutqiy xarakteristikasini berishda badiiy vosita sifatida maqol, matal, hikmatli so'zlardan o'rinli va ijodiy foydalanadilar. Buning uchun Oybekning «Qutlug' qon», «Oltin vodiyan shabadalar» romanlari, Abdulla Qahhorning nasriy va sahna asarlarida ishlatilgan maqollarni kuzating. Ular so'z ko'rki – maqol, matallardan barakali foydalanibgina qolmay, o'zlari ham yangidan-yangi hikmatli so'zlar ijod etganlar. Masalan, *O'qsiz soldat - qilichsiz qin. Er hosilning onasi bo'lsa, otasi – mehnat* kabi so'zlar Oybek ijodiga mansub.

Quyidagi matnlarda esa Abdulla Qahhor ijod etgan hikmatli iboralarni o'qiymiz: *Dadam dam-badam ichidan huruj qilib kelayotgan yig'ini yutib, ayamga tasalli berdi, taqdiri azal, odamning umri bir tomchi kabobning seli* (O'tmishdan ertaklar). *Kana sigirning qulog'iga tushadi, tuyog'iga emas. Xazinaga kirgan mushuk zarga qaramaydi, sichqon ovlaydi.*

Hamza Hakimzodaning «Boy ila xizmatchi» dramasiidagi ijobiy obrazlar - G'ofir va Jamila nutqidagi ba'zi iboralar o'z ma'nolari jihatidan aforizm darajasida turadi: *Hayo benomusda bo'lmaydi, hayosizda nomus bo'lmaydi. Tiz cho'kib yashaguncha, tik turib o'lmoq yaxshiroq. Haqiqat bukilar, lekin sinmas va boshqalar.*

Publitsistik asarlarda maqol va matallar badiiylilikni kuchaytirishdan tashqari, fikrni alohida ta'kidlash uchun xizmat qiladi va uning siyosiy o'tkirligini oshiradi.

G'oyaviy mazmuni, ma'naviy-ahloqiy xulosasiga ko'ra xilma-xil, rang-barang bo'lgan maqollar uslubiy vazifasi jihatidan ham o'ziga xos xususiyatga ega. Maqollardan keng va teran g'oyani qisqa, ixcham shaklda ifodalash kishilarni

nutqqa e'tibor berish va talabchan bo'lishga o'rgatadi, to'g'ri va mantiqiy fikrlashga yordam beradi.

Maqollardan foydalanishda ularning tushunarli bo'lishi, o'z o'rnida to'g'ri ishlatilishiga, nutqni aniq va ta'sirchan qilishiga alohida e'tibor berish kerak.

Maqollarni noto'g'ri, buzib ishlatish ham ularning ma'nosiga putur etkazadi. Quyidagi misollarni kuzating: *Bu taklifning yaxshi ekanligiga shubha yo'q, lekin bu taklif oy eshikka, arva tuynukka kelganda kiritiladi* (Gazetadan). Bunda xalq tilidagi *oy tuynukka, arava eshikka kelganda* maqolining leksik tartiblanishi buzib berilgan. Quyidagi matnda esa xalq tilidagi *ekiga jon qayg'u, qassobga yog' qayg'u* maqolining butunlay buzib ishlatilishi maqoldan anglashiladigan majoziy ma'noni ham, mantiqiy xulosani ham yo'qqa chiqargan: *Sichqonga don qayg'u, qassobga jon deganlaridek, hamma o'z bilgani bilan ovora* (Gazetadan).

1. Emotsional-ekspressiv leksikaning uslubiy xususiyatlari

Intellektual leksika. Ma'lum tushunchagina ifodalab, qo'shimcha emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lmagan so'zlar intellektual leksika deyiladi. Masalan: *er, suv, non, qalam, daftar, yil, hamma, tarbiya, masala, yuz, qora, qizil, ko'rmoq, bormoq, isbotlamoq* va boshqalar. Ilmiy-texnik terminlar, kasb-hunarga oid maxsus so'zlar, ijtimoiy-siyosiy va umumadabiy leksikaga oid ba'zi so'zlar ham emotsional bo'yoqqa ega bo'lmaganligi uchun intellektual leksikaga kiradi.

Intellektual so'zlar umumiste'moldagi leksikaga xos bo'lganligi sababli har qanday janrda ishlatilaveradi va uslubiy jihatdan chegaralanmagan bo'ladi. SHunga ko'ra ular uslubiy neytral leksika deb ham yuritiladi.

So'z turkumlaridan son, olmosh, ko'makchilar (bir, ikki, ...o'n, yuz, ming...; men, sen, shu, bu, hamma...; bilan, uchun, kabi, singari, so'ng, keyin...) bog'lovchilar (va, ham, ammo, agar, chunki, yoki, toki...) deyarli intellektual leksikaga kiradi.

Emotsional-ekspressiv leksika va ularning turlari. O'zbek tili leksikasida ekspressiv va emotsional rangdorlik bilan bog'liq bo'lgan so'zlar ko'p. Masalan, quyidagi so'zlar ta'sirli va ifodali bo'yog'iga ko'ra nutqqa ko'tarinki, tantanali va ulug'vor ruh kiritadi: *navqiron* (yoshlik), *istiqbol* (egalari), *mag'rur* (*jaranglamoq*), *muqaddas* (*burch*).

Tilda o'z leksik ma'nosi bilan his-tuyg'u, kechinma va hayajon ifodalovchi so'zlar ham bor: *sevinch*, *quvonch*, *tabassum*, *dahshat*, *hiylagar* kabi.

Ba'zi ko'p ma'noli so'zlar to'g'ri ma'nosida emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lmaydi, lekin ko'chgan ma'nolarida emotsional-ekspressivlik yaqqol seziladi. Masalan, *gumbaz* so'zining *qubba*, *ravoq* ma'nolarida emotsional bo'yoq yo'q, lekin ko'chgan ma'noda qo'pol, beso'naqay, semiz odamni ifodalaydi. Xuddi shuningdek, *mag'zava* so'zi ham ko'chgan ma'nosida (*mag'zava mahsum*) *mujmal*, *lanj*, *sustkash* odamni anglatadi.

Ba'zi holatlarda sinonim so'zlar bir-biridan emotsional-ekspressiv bo'yog'ining kamroq yoki yaqqol sezilib turishi bilan farqlanadi: *yuz*, *chehra*, *jamol*, *oraz*, *bet*, *aft*, *bashara*, *turq* kabi sinonim so'zlarning keyingi uchtasi o'zining emotsional-ekspressiv rangiga ko'ra oldingilaridan ajralib turadi. *Aft*, *bashara*, *turq* so'zlarida salbiy ottenka yaqqol seziladi. Xuddi shuningdek, *bo'shang*, *lapashang*, *noshud*, *landovur*, *so'tak* sinonim so'zlari *chaqqon* (*epchil*)ning aksi ma'nosi bilan birlashsa-da, bulardan *landovur*, *so'tak* so'zlarida salbiy ottenka kuchlidir.

So'zlarning emotsional-ekspressiv ma'no xususiyati kontekstda reallashadi. Masalan, *ko'pik*, *nok* so'zlari kontekstda salbiy baho ma'nosini olishi mumkin: *Maqolaning ko'pigi ko'p. Bu nok odam (chiniqmagan ma'nosida)*.

SHunday qilib, so'z bir predmet yoki voqeaning nomini atashdan tashqari, jirkanish va manmanlik, mensimaslik, masxara, nafrat, g'azab, kinoya, hurmat, erkalash, ko'tarinkilik, ulug'vorlik singari emotsional-ekspressiv ma'nolarini ham ifodalaydi. SHunga ko'ra so'zlar ijobiy ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar va salbiy ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar, deb ikkiga ajratiladi.

Ijobiy ma'no o'ttenkasiga ega bo'lgan so'zlar qatoriga quyidagilar kiradi:

a) erkalash-suyish va xushmuomalalikni bildiruvchi so'zlar. Bunday so'zlarning ko'pchiligi erkalash-kichraytirish affikslari yordamida yasaladi: *toychoq, qo'zichoq, bo'taloq, do'mboq, kenjatoy, bolatoy, opajon, bolagina, aylanay, o'rgilay, girgitton bo'lay* va hokazo;

b) tantanali, ritorik hamda poetik so'zlar. Bunday so'zlar nutqqa dabdabali, ko'tarinki ruh kiritadi. Kuchli ifoda vositasi hisoblangan bunday so'zlarning ko'pchiligini arxaik so'zlar tashkil qiladi.

Bu turkumdagi so'zlarga og'zaki ijodiyot – folklorda keng qo'llanuvchi xalq poetik so'zlarini ham kiritish mumkin. Bunday so'zlar adabiy tildagi so'zlardan o'zining og'zaki-poetik bo'yog'i va doston qo'shiqlariga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Masalan: *alp (pahlavon), lopchi (lofchi), sinchi (otni yaxshi biluvchi), ko'kalam (ko'kalamzor), kelbatli (qaddi qomati kelishgan), halolxo'r (to'g'ri, vijdonli).*

Salbiy baho o'ttenkasiga ega bo'lgan so'zlar qatoriga quyidagilar kiradi:

a) jirkanish va mensimaslikni ifoda qiluvchi so'zlar: *oyimcha, oyimchaxon, oyimtilla, baloxo'r, pashshaxo'rda, kerilmajon, mazaxo'rlik, yutoqmoq, so'tak, xomkalla, o'limtik* kabi;

b) qarg'ish, so'kish va haqorat ma'nosini ifoda qiladigan so'zlar: *zumrasha, xumpar, tirrancha, la'nati, gazanda, simyon, bachchag'ar, oqpadar, qizitaloq, jinnivachcha, juvonmarg, go'rso'xta, baraka topmagur, qoqbosh, to'ymagur, turqing qursin...*;

v) xalq tilidagi hazil so'z va iboralar: *ahmoqqa to'qmoq (kishining muskul kuchini o'lchaydigan asbob), oyog'ini to'rtta qilib qo'ymoq (uylantirish ma'nosida);*

g) salbiy emotsional bo'yoqqa ega bo'lgan publitsistik leksika. Bunday so'z va iboralar publitsistikada dushman va yot oqimlarni fosh etishda keng qo'llaniladi. Masalan: *qora guruh, sariq iblis, okean ortidagilar, banditlar,*

bosqinchilar, yo'pchilar, shovinstlar, imperialistlar, urush olovini yoquvchilar, ma'rifat dushmanlari kabi.

Emotsional-ekspressiv leksikasidan foydalanish matnning umumiy uslubiy maqsad va yo'nalishi bilan bog'liq. Emotsional xususiyatga ega bo'lgan so'zlar badiiy-publitsistik asarlarda hamda so'zlashuv nutqida qo'llanadi. Biroq dag'al so'zlar (vulgarizmlar) va haqorat so'zlardan foydalanishda ma'lum odob chegarasida turish zarur. Qo'pol, vulgar, argo so'zlarni hatto asarda ishtirok etuvchi shaxslarning nutqiy xarakteristikasini berish maqsadida ishlatish ham naturalizmga olib keladi.

Evfemizmlar va ularning uslubiy roli. Evfemizm tilning ifoda va uslubiy vositalaridan biri sanaladi. Aytish noqulay yoki noo'rin bo'lgan so'z yoki ibora o'rniga ishlatiladigan «pardali» so'z yoki ibora evfemizm deyiladi. Masalan, *bo'g'oz xotin*, deb aytish jonli tilda ham, adabiy tilda ham noqulay bo'lganligi uchun uning o'rnida *ikkifat, og'iroyoqli, homilador, yukli* kabi evfemistik so'zlar ishlatiladi. Xuddi shuningdek, nutq vaziyatiga qarab *tug'di* o'rnida *ko'zi yoridi, ahmoq* o'rnida *aqli qisqa, kar* o'rnida *qulog'i og'ir, o'g'ri* o'rnida *qo'li egri* kabi iboralar qo'llanadi.

Tilda evfemizmlarning yaratilishi etnografik tushuncha – tabu hodisasi bilan ham aloqadordir. Kishilik jamiyati taraqqiyotning ibtidoiy davrida tabiat hodisalarining sirini bilishga ojiz bo'lgan. Inson qo'rquv uyg'otadigan sehrli va zararli, yovuz kuchlardan, jin, arvoh, «yomon ruhlar»dan, ofatli kasallik va yirtqich hayvonlardan saqlanishning birdan-bir chorasi ularning nomini aytishni man etish, atamaslik deb tushungan. Aloqa-aralashuv muomalasida so'zlarni aytishni bunday man qilish, ta'qiqlash hodisasi tabu deb ataladi.

Nomini aytish man etilgan qo'rqinchli narsa va hodisalarni, yovuz kuchlarni chiqarish xavfini tug'dirmay gapirish zarurati tug'ilganda, ular boshqa so'zlar, ya'ni evfemizmlar bilan almashtiriladi. Tabu hodisasi izlarini tilda hozir ham uchratish mumkin. Masalan, yirtqich hayvon *bo'ri* o'rnida *itqush, qabishqir, qorishqul, jondor*; kasallik nomi *qizamiq* o'rnida *gul, oymoma, haymoma; chayon*

o'rnida *eshik, oti yo'q, benom* (Urgut tumanida), *gazanda* (Andijon), *ayrim quyruq* (Xorazmda), *besh bo'g'in, gajdum* (Surxondaryoda) kabi so'z yoki so'z birikmalarining ishlatilishi evfemizm hodisasidir.

Quyidagi misolda aytish noqulay bo'lgan kasallik nomi o'rnida evfemistik so'z ishlatilgan: *Biz oq domla deganning tashxisiga ko'chadigan bo'ldik. Oq domlaning tashxisi... hozir jinnixonona qilib qo'yilgan, domla shu erda jinnilarni o'qib tuzatar ekan. Oq domla peshonasi, ko'z ostilari, bir chekkasi va butun bo'yni oppoq pes, biroq nafasidan jinni shifo topadigan bo'lgani uchun xalq pes domla degani og'zi bormay, oq domla derkan* (A.Q.)

O'zbek tili xilma-xil evfemistik iboralarga boy bo'lib, muomalada ularning turli tiplari keng miqyosda ishlatiladi.

Ba'zi evfemizmlar bir asosiy tushunchani ifodalasa-da, lekin ular o'zlariga xos ottenkalari va kishilarning bir xil tushunchaga turlicha munosabatda bo'lishlarini ko'rsatish jihatidan farqlanib turadi. Evfemizmlarning bunday farqlanuvchi belgilari sifatida turli emotsional-ekspressiv bo'yoqqa egaligi, biron nutq ko'rinishiga mansubligi, adabiy til yoki dialektga xosligi kabi holatlarni ko'rsatish mumkin. Masalan, o'zbek tilida *o'lim* tushunchasini ifodalash uchun ishlatiladigan *vafot qilmoq, joni uzilmoq, jon bermoq, qazo qilmoq, olamdan o'tmoq, ko'z yummoq, mangulik uyqusiga ketmoq, bandalikni bajo keltirmoq, omonatini topshirmoq* kabi evfemizmlar emotsional-ekspressiv va uslubiy bo'yog'i bilan bir-biridan farqlanadi. Bulardan tashqari, kitobiy nutqqa xos bo'lib, hozirgi arxaiklashgan quyidagi iboralar ham o'lim tushunchasini bildiruvchi evfemizmlar hisoblanadi: *Safar ixtiyor qildi va ul safardan oxirat safari oldig'a tushdi.* (N.) *Pirim shu erda manzilu murodlarini topib, ilohimning dargohiga matkul etildilar.* (As.M.)

Nihoyat shevalarda ham shu tushunchani ifodalovchi yana birmuncha evfemizmlar uchraydi. Masalan, bola o'lsa *bola uchdi, go'dagi uchdi* (Namangan va Farg'ona shevasida), *nobud bo'ldi* (Toshkent), *bola chennadi* (Samarqandning ayrim tumanlarida), *bola chetnadi* (Gurlan tumanida) kabi iboralar ishlatiladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, evfemizmlarni aytish noqulay yoki noo‘rin bo‘lgan so‘z, ibora o‘rnida silliqroq, pardali so‘zlarni ishlatish ehtiyoji bilan yasalgan ijobiy ottenkali so‘z va iboralar yig‘indisi tashkil qiladi.

Lekin tilda aytish noqulay va noo‘rin bo‘lgan tushunchani evfemistik usul bilan yumshoq, silliqroq shaklda ifoda etishdan tashqari, qo‘pol va dag‘al shaklda ifodalash usuli ham mavjud. Bunday so‘z va iboralar kakofemizm (yoki disfemizm) deb yuritiladi. Masalan: o‘lim tushunchasini ifodalash uchun quyidagi kabi kakofemizmlar ishlatiladi: *ko‘zga tuproq to‘lmoq, asfalosofilinga jo‘natmoq, er tishlamoq, erning qa‘riga ketmoq, qulog‘i tagida (ostida) qolmoq, yostig‘ini quritmoq, narigi dunyoga jo‘namoq* va boshqalar. Kakofemizmlar so‘zlovchining tinglovchiga yoki biror predmetga nisbatan masxara, istehzoli, iltifotsiz qarashini, munosabatini ifodalaydi.

Tilda azaldan o‘rnashib qolgan evfemizmlardan tashqari, muayyan nutq vaziyati talabi bilan yaratilgan evfemizmlar ham mavjud. Bu xil evfemizmlar tildagi mavjud so‘zlarga nisbatan kontekstual sinonim bo‘ladi. Ko‘pgina hollarda evfemistik perifrazalarning ma‘nosi kontekstda ochiladi va ular uslubiy funksiyasi jihatidan muallif yoki asar qahramoni nazarida qo‘pol tuyulgan so‘z, iborani yumshoq, silliqroq shaklda ifoda qilish vazifasini bajaradi. Masalan: *-Avval eson-omon qutulib oling, o‘rtoqjon.* (As.M.) *Ra‘noni egasiga topshirmagunimizcha – dedi Nigor oyim, - quyilmaydiganga o‘xshaydi.* (A.Qod.)

Bu misollarda nutqiy odob nuqtai nazaridan qo‘llanilib, *tug‘moq* so‘zi o‘rnida *qutulib olmoq, erga bermoq* o‘rnida *egasiga topshirmoq* kabi evfemistik ma‘no kasb etgan bu iboralar kontekstdan tashqarida butunlay boshqa ma‘no anglatishi mumkin.

Xuddi shuningdek, badiiy evfemizmlarning ham ma‘nosi, odatda, kontekstda ro‘yobga chiqadi. Kontekstdan tashqarida o‘zining evfemistik ma‘no xususiyatini yo‘qotadi. Haqiqatdan ham, quyidagi misolda turmush o‘rtog‘i- «eri» ma‘nosida qo‘llangan *gavhar, quvvat* so‘zlari kontekstdan tashqarida hech vaqt bu ma‘noni anglatmaydi. Masalan: Maryamxonim (achchiq ila marjonni uzib otib,

erga urib): - *Ol bisotingni, mening gavharim bor, quvvatim bor, ko'zimga ko'rinmaydi bunaqa narsalar* (H.H.)

Quyidagi kontekstda esa bir zanjir – uchinchi bir odam birikmalari «qornimda bola bor, homiladorman» ma'nolarida ishlatilgan: Jamila: -*Hali men sizdan suyunchi olmoqchi edim. Bizni kim ajrata oladi, axir ikkimizni mahkam bog'laydigan yana bir zanjir – uchinchi bir odam...* (H.H.)

Yozuvchilar evfemizmlardan o'z asarlarida hazilomuz, yumoristik tasvir yaratish uchun ham keng foydalanadilar. Masalan, Abdulla Qodiriy «Kalvak Maxsumning xotira daftaridan» degan hajviy asarida Maxsum domlaning jismoniy nuqsonini-g'ilayligini xalq tilidagi hazil ibora - *qassobdan et olib baqqol bilan muomala qilmoq* evfemizmi bilan ifoda qiladi. Maxsum domla o'zining go'daklik chog'ini hikoya qilar ekan, shunday deydi: *Faqir shu yo'sin ikki yil komil beshikda sirilib yota-yota... boshqalardek beshikdan qutulib erkka chiqibdurmen. Ammo nazir boshim kesak qisqon qovundek qiyshiq bo'lib yana jovdirlag'on ko'zim qassobdan et olib baqqol birlan muomala qilating'on darajaga etibdur.*

Quyidagi misolda esa Hamza Hakimzoda *pora bermoq* o'rnida *tarnov-parnovini ho'llamoq* individual evfemistik iborasini qo'llaydi: Qodirqul: -*Biz ham o'shalarchalik tarnov-parnovingizni ho'llab qolarmiz.*

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, evfemizmlar badiiy adabiyotda, asosan, aytish uyat, noqulay va noxush vaziyatlardan qutilishning birdan-bir uslubiy vositasi sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari, badiiy asarda obraz va personajlar nutqida ishlatilgan evfemizmlar har bir obraz va personajning maqsadi, dunyoqarashi va saviyasini ifodalashdek muayyan uslubiy maqsadni ham ko'zda tutadi.

2. Emotsional-bo'yoqdor so'zlarning uslubiy qo'llanilishi

So'zlovchining his-tuyg'ularini ifodalash xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar, emotsional bo'yoqdor so'zlar emotsional leksikani tashkil etib, ularsiz badiiy asarni tasavvur etib bo'lmaydi.

O'zbek tilining emotsional leksikasi ma'lum darajada tadqiq etilgan. Bo'yoqdor leksik qatlamga doir so'zlar voqelikka so'zlovchining ikki xil sub'ektiv emotsional munosabatini ifodalaydi:

1) ijobiy emotsional munosabat; 2) salbiy emotsional munosabat.

Ijobiy emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar so'zlovchining narsa, belgi yoki harakatga bo'lgan turlicha ijobiy munosabatini ifodalaydi. Masalan: *Uning ovozi chertilgan jonon kosaday jaranglar edi.* («Yodgor». 3). Yoshlik kitobining *zarhal* sahifalarida yurak tepishlari qayd qilingan bu satrlarni umrday mayda to'lqinlar bilan oqib borayotgan ariqchaga termulib tingladim («Yodgor» 4). Xast eshonning kichik xotinlari o'n ettiga etar-etmas, juda ham *kuling o'rgilsin* («Shum bola». 188). *Oyoq – qo'ling chaqqongina epchil* yigitsan («Shum bola» 189). Yurak urushlari bilan *zoriqib-zoriqib* kutganim-Saodat! («Yodgor». 40).

G'afur G'ulom asarlari tilida ijobiy munosabatni anglatuvchi quyidagi so'zlar - *jonim, mulla aka, taqsir* so'zlari hurmat ma'nosini ifodalasa, *do'ndiqqinam, oppoq o'g'lim, bolaginam, onang o'rgilsin, holaginang o'rgilsin, holang aylansin, baraka topgur, bo'yingga qoqindiq, aylanay, tentakkinam, bolaginam, o'rgilay, xudo urgan qo'li ochiq, bo'yingdan girgitton bo'lib ketay, balli azamat, qo'zichoqlarim, toylog'im, chirog'im, qo'ling o'rgilsin, opaginang o'rgilsin, otang aylansin, oyimchaxon, oyimposhsha, oppoqqinam, baraka topgurlar, bo'tam* kabi lug'aviy birliklarda erkalash ma'nosi mavjuddir.

Salbiy munosabatni ifodalovchi lug'aviy birliklarda so'kish, haqorat kilish, mensimaslik, kinoya, piching, kesatiq ma'nolari anglashiladi: Bu mollarni yoyib o'tirgan chayqovchilarning *afti basharasini* aytmay sizmi! *Betlariga* bu hafta ichi suv tegmagan, soqollari ustaradan ozod, *basharalaridan* «nur» yog'ilib turadi («Shum bola». 144). Bir og'iz xabar berib *qo'ysang o'larmiding!* («Shum bola». 146). Xudoyo, seni *otangning arvohipa soldim* («Yodgor». 12). Kishi qarigandan keyin *ezma* bo'lib qolar ekan-da, mening bolam, degandan keyin. Mening bolam («Yodgor». 12).

Gʻafur Gʻulom asarlari tilida salbiy emotsional-ekspressiv boʻyoqqa ega lugʻaviy birliklar quyidagicha: *bevafo, yigitcha, avramoq, tantiq, satang, chayqovchi, laqalov, juvon tushmagur, xudo urgan oʻjar, beboshvoq, oʻlimtik, etti otamning goʻriga gisht qalamoq, paranjini tunga ayirbosh qilmoq, chakagini uchirmoq, mayna boʻlib qolmoq, obi diyda qilmoq, javramoq, yigit oʻlgur, juvormarg, tusingni el emasin, nomard, past, oʻlgur, zumrasha, axmoq, makkor bashara, basharasi behayo, haromi, daʼyus, padar laʼnat, it xoʻmrayish, oq qilmoq, bachchagar, nas bosgan, koʻzing koʻrsin, shum bola, koʻchmachi, manjalaqi, qiztaloq bola, xudo urgan badbaxt, ziqna, xudo urgan odam, itdan tuqqan, qorning oshga toʻymasin, juvormarg, boʻl, tering sangobda chirigur (sigir), goʻshting olaqargaga xomtalash boʻlgur, devona (sigir) ablah, loʻlivachcha, oʻlguncha koʻzi tor, ziqna murdor, muloyim shupurgi, sanqimoq, baqraymoq, izgʻimoq, salanglamoq va b.*

Gʻafur Gʻulom asarlari tilida individual harakterdagi haqorat soʻzlari ham uchraydi: -Xoy, *xaromi koʻcha*, yaxshi oʻylab koʻr, u yoq-bu yoqqa olib qoʻygandirsan? –deb soʻradi («Shum bola» 288).

Shoir nasriy asarlari tilini kuzatar ekanmiz, unda erkaklar hamda ayollar nutqida farqlanadigan quyidagi emotsionallikka ega boʻlgan haqorat soʻzlarini uchratdik. Erkaklar nutqida qoʻllanadigan haqorat soʻzlari: *bachchagar, haromi, oʻlgur, harom oʻlgur, itdan tuqqan, qorning oshga toʻymasin, juvormag boʻl, tustovuqqa oʻxshab tumshaymay oʻl, muloyim supurgi boʻlmay, germonning oʻqiga uchib ket, tuzim koʻr qilgur, xumpar, padarlaʼnat // padaringga laʼnat, ahmoq, manjalaqi, qiztaloq bola* va b.

Shuningdek, Gʻafur Gʻulom asarlari tilida haqorat hamda erkalashni ifodalovchi emotsional soʻzlarning yonma-yon qoʻllanganini kuzatamiz:

-Ha, *etim, taylogʻim, qaysi goʻrlarda besaru somon yoʻqolib ketding?* («Shum bola» 256). -Nima qilib *ivirsiyapsan, bolam?* («Shum bola». 290).

Ayollar nutqida emotsionallikni ifodalovchi haqorat soʻzlari keng qoʻllanadi: *oʻlgur, juvonmarg, zumrasha, yigit oʻlgur, betingni el toʻsmasin, aldamchi, iflos, qoʻshmach, satang, bemaʻni, dangasa* va b.

Tursun (Parixonga taajjub bilan qarab turadi). *Aldamchi, iflos, qoʻshmach, satang!* Tufuv!... (Chiqib ketadi.) («Erkimiz». 411).

Yuqorida sanab oʻtilgan emotsionallikni ifodalovchi haqorat soʻzlari badiiy asarda personajlarning xarakterini ochib berish maqsadida uslubiy vosita vazifasini bajaradi. Masalan, «Yogor» asari personaji Joʻravoy nutqida haqorat soʻzlari ishlatilmagan. Faqat Mehrining «tuzogʻi»ga ilingan Joʻraning nutqida «kelishilganday» haqorat soʻzlari ishlatiladi: Yaʼni, «U meni «*chayqovchi*» deydi. Men uni «*tantiq, satang*» deyman». («Yodgor». 75).

«Shum bola» asarida qargʻish iboralari ayollar emas, balki erkaklar nutqida juda koʻp qoʻllangan. Asar qahramoni «Shum bola» nutqida sigirga nisbatan qoʻllangan qargʻish iboralari kitobxonning kulgusini keltiradi: *Goʻshting olaqargʻagʻa xomtalash boʻlgur*, men etib borgunimcha oʻt chimdib turadi,... (215). Chunki, *ertaga egang oʻlgur*, tutqaloqli sigirni u oʻtlatgani olib borsa, choʻt qoʻltiqlab mehmondorchilikda yursam, degan fikr boshimdan ketmas edi (216). Shu ahvolda tipirchilib yotgan, *tering sangobda chirigur* sigir birdan irgʻib oʻrnidan turib, dumini xoda qilib bir qochib berdi (215). Lekin asar personaji Xoji bobo nutqidagi qargʻish iboralari «shum bola»ning nutqidagi qargʻishlardan katta farq qiladi: -Hali shunaqami? -dedi, *-tuzim koʻr qilgur?* (289). -Hu, javdiramay *koʻzing qursin* (241). -Hu, muloyim supurgi boʻlmay, *germonning oʻqiga uchib ket!* (256). -Hu, *tustovuqqa oʻxshab tumshaymay oʻl*, nimaga qarab turibsan...(284).

Baʼzi «qargʻish iboralarning oʻzi jonli nutqda baʼzan suyish, yoqtirish munosabatlarida ishlatiladi: *Qizi tushmagur* ancha etilib qopti-ya! («Yodgor».27). *Qurmagʻurning koʻkragini qara*, xuddi Hojimuqonning koʻkragiga oʻxshaydi, boldirini qara! («Yodgor». 20).

Salbiy munosabatni ifodalovchi ba'zi bir xil so'zlar shaxs, narsa hamda hayvonlarga nisbatan qo'llanadi:

Qo'y degan *harom o'lgur* juda *ahmoq*, asov hayvon bo'lar ekan («Shum bola». 204). -Ko'r -ey, ey *harom o'lgurlar*, ko'r-ey-degan mungli ovozi eshitdim («Shum bola». 206). -Voy, *ahmoq*. Hozir saraton. Saratonda jiyda mevalari danagiga alif yozdirish uchun Makkaga ketadi («Shum bola». 142). -Nima deyapsan, *haromi*, boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib, mening birdan-bir boqib qo'ygan uloqchi otim bilan suv tashiysanlarmi, padar la'natilar? («Shum bola» 198). Biror soat *sanqiganimizdan* keyin, Omonning ketmoni bilan mening yog'och kuragimni sotishga ulgurdik («Shum bola» 147). Echki bo'lmagandan keyin boshi oqqan *sanqib* keta berar ekan («Shum bola» 204).

Ma'lumki, sub'ekt ba'zan o'z g'azabini yumshoqroq, madaniyroq shaklda ifodalash uchun *qurg'ur* so'zidan ham foydalanadi. G'afur G'ulomning «Shum bola» asarlaridagi quyidagi so'z birikmaklari shu maqsadda qo'llangan: *sabzisi qurg'ur, yigit qurg'ur, mosh qurg'ur, to'ti qurmagur, choying qurg'ur, qurg'ur // qurmagur* so'zi birikma tarkibida qo'llanib norozilik ma'nosini hosil etadi: bundan tashqari, *mosh qurg'ur*, bilmadim, qaysi toshloqda bitgan ekanki. Hadeganda ochila bermadi. (176). Tun-telpakni pushtaga qo'yib, sabzi kovlashga tushib ketdik. *Sabzisi qurg'ur* juda ham bitgan ekan, eng kichkinasi qayroq toshday (212).

Ma'lumki, o'zbek xalqida qarindosh bo'lmagan shaxslarga nisbatan ham qarindoshlikni ifodalovchi so'zlar bilan murojaat etiladi. Shoir asarlari tilida *kampir, uka* so'zlarining bir qancha ma'nolarda qo'llanganligini kuzatamiz. Masalan: *uka* so'zi o'zbek tilida bir ota-ona o'g'illaridan kichigi (katta yoshdagi farzandlarga nisbatan) hamda o'zidan yosh er kishiga murojaat ma'nosini anglatadi:

Akam-ku orqavoratdan: «Bo'ldi, - deyar emish, -men bilan bordi-keldi qilmasin. Unaqa *ukam* yo'q», deb yurgan emish («Yodgor» 14). -Ey, *uka*, -dedi pochcham, -endi bizlarning vaqtimiz o'tib qoldi. («Yodgor» 37).

Gʻafur Gʻulom asari tilida bu soʻz davr tili ruhini aks ettirish maqsadida ham qoʻllangan. Chunki asar yaratilgan davr tilida *uka* soʻzi singilga nisbatan ham ishlatilib, jonli xalq tilida jins jihatidan farqlanmagan. Masalan: Oʻninchi kunlarga borganda yigʻilib yotgan bolani koʻrib, ukalarimni koyiyotganligini eshitib qoldim:

-«Hoy, Qumri, axir ukangga qarasang-chi, ichagi uzilib ketdi-ku! Nonimni yopib olgunimcha ovutib turgin. Men hozir borib olaman».

Yoinki: «Abdugʻani, tura qol, oppoq oʻgʻlim, vaqtliroq borib, ukangning sutini olib kelib bermasang, kun qizib ketsa, olib kelguningcha aynib qoladi», deyar edi («Yodgor» 28).

Mazkur matnga bogʻlanib Joʻraning ukalari Qumri, Abdugʻani ekanligini bilib olamiz. Chunki asarda qoʻllangan kampir tilidagi: «...bu kun ham ukalaringning kiri chala qoladigan boʻldi-da» (9) gapi tarkibidagi *uka* soʻzi Qumri hamda Abdugʻanilarga nisbatan ishlatilganini koʻramiz. SHuningdek, Gʻafur Gʻulom mazkur soʻzni erning xotiga murojaatida qoʻllaganda ham, uning (xotinning) oʻziga nisbatan yoshi kichik ekanligini eʻtiborga olgan:

Oʻrtogʻim mening tinchlanganimni koʻrib, xotinini qistay boshladi:

-Mehrixon. Hoy Mehrixon! *Uka*, kel, qoʻy endi, sogʻ-salomat boʻlsa oʻynab-kulib katta boʻlib qolgandir, oʻlib ketgan boʻlsa, ayb eski turmushning kishilarga kafan bichishida. Mana bu oʻrtogʻim doktor -oʻzimizning hamshahar. («Yodgor» 47).

«Yodgor» asarida qarindoshlikni ifodalovchi *buvi, oppoq oyi, dada, amma, xola, pochcha, opa, aka, egachi-singil* kabi soʻzlar ham qoʻllangan. Bulardan *amma* soʻzi Joʻraning nutqida oʻz maʼnosida, *xola* soʻzi esa Saodatning nutqida oʻz maʼnosida qoʻllanmagan. Chunki Saodatning onasi Joʻraga amma, otasi pochcha; Joʻra bilan Saodatning onasi opa-singil boʻlmasa-da, Joʻraning onasiga Saodat *xola* deb murojaat etadi. -Saodat bolaginam ham vafolikkina qiz: ikki kunning birida, «*xola-xola*» deb holimdan xabar olib turadi («Yodgor» 30).

Shoir asarlari tilidagi personajlar nutqida ham qarindosh boʻlmagan shaxslarga murojaatda qarindoshlikni ifodalovchi soʻzlardan foydalanilgan.

Gʻafur Gʻulom asarlari tilida hurmatni ifodalovchi *oʻrtoq, oʻrtoq doktor, birodar, ogʻayni, taqdir* kabi emotsional soʻzlar erkaklarga murojaatda qoʻllanadi.

Erkalovchi-emotsional leksika uch guruhga ajratiladi:

1. Qarindoshlik munosabatini ifodalagan soʻzlarning erkalash, kichraytirish hamda egalik affikslari bilan qoʻllanishi keng kuzatiladi. Masalan: -Ninni, ninnigina, *nevaraginamdan* oʻrgilay, yigʻlmasin, yigʻlmasin. Mana hozir buvingiz qoʻlini artadi, doʻndiqqinam, oʻzim bagʻriginamga bosaman! («Yodgor» 9). Mazkur matnda kampir (Joʻraning onasi)ning nutqidagi *nevaraginam* soʻzida erkalash shakli (*-gina*) hamda «egalik affiksi (*-m*) hissiy munosabatni ifodalab, hissiy taʼsirchanlikni oshiradi».

Gʻafur Gʻulom «Yodgor» asarida erkalovchi-emotsional soʻzlarni uslubiy vosita sifatida shu darajada qoʻllaydiki, hatto onasi nomaʼlum boʻlgan «*nevarasi*»ga mehri tushmasdanoq, uning bolajon ayol ekanligini koʻrsatish maqsadida erkalash shakli va egalik affiksini oʻrinli qoʻllagan:

-*Bolaginamning* tagi ham boʻkib ketibdi («Yodgor» 13).

Asarda bunday shakllar koʻp qoʻllangan: -Saodat *bolaginam* ham vafolikkina qiz... («Yodgor» 30). «Voy, *xolaginang* oʻrgilsin, omon boʻlsang, bir kun yuvarsan», dedim-da, unamadim («Yodgor» 30).

2.Gʻafur Gʻulom ijodida oʻzbek adabiy tilidagi *qoʻli gul* iborasi *qoʻli gulgina* shaklida qoʻllangan: Baraka topgurning *qoʻli gulgina* («Yodgor» 30). *-gina* affiksi koʻchma maʼnoli *tuyoq* soʻzi bilan ham qoʻllangan: Sendan qoladigan *tuyoqqina* («Yodgor» 14).

SHuningdek, Gʻafur Gʻulom asarlarida salbiy munosabatni ifodalovchi *gul, tentak* soʻzlarini *-gina* affiksi bilan qoʻllab, erkalash maʼnosini aks ettiradi: Men laqalov, *gulgina* banda, laqqa uchdim («Yodgor» 7).

Tentakkinangiz savlatligina yigit boʻlib qaytdi-ya, sallotlikdan («Yodgor» 16).

-gina affiksi kinoya ma'nosini ham ifodalaydi: Ana shu yallachilikning pulidan *erginamiz* Rahmat hoji bunchalik errayim bo'lib yuribdi («Shum bola» 250).

Egalik affiksi kishi ismlariga ham qo'shilib, yaqinlik ma'nosini anglatadi: Yo'q, bu -mening *Saodatim!* Vafoli *Saodatim!* («Yodgor» 41). Men *Jo'ra akamlarga* xat yozmoqchiman, gap-mapingiz bormi, qo'shib yuboray, dedim («Yodgor» 25).

G'afur G'ulom hurmat hamda erkalash ma'nolarini ifodalash uchun *-jon*, *-xon*, *-boy* affiksalaridan ham foydalangan: Uyda senlar turib, men xizmat qilib yuraymi? *Jo'ravoy* bo'lsa-o'zimizniki («Yodgor» 27). *-Otajon*, musofirman, - dedim («Shum bola» 171). -Mana shu yorug' yulduzning oti nima, *otaxon?* («Shum bola» 228).

Asarning bir o'rnidagina *YOdgor* so'zi erkalash affiksi **-boy** bilan qo'llangan: Menga hurmatdan kampir unga «Yodgorvoy, Yodgorvoy» deb ism qo'ya boshladi («Yodgor» 14).

SHuningdek, asarda Mehri hamda Mehrixon antroponimi qo'llanganki, uning tarkibidagi *-xon* affiksi erkalash-hurmat ma'nosini ifodalaydi: -O'rtog'im so'zini bo'lib, xotiniga qaradi: -Aytaveraymi, *Mehrixon?* («Yodgor» 45).

3.G'afur G'ulom asarlari tilida emotsional-bo'yoqdor so'z va so'z birikmalarining asosiy qismini erkalash leksikasi tashkil etadi. Ayniqsa, G'afur G'ulom «Shum bola» qissasida bunday leksikadan mohirona foydalangan». Bular quyidagilar: *jonim*, *bo'tam*, *aylanay*, *toylog'im*, *qo'zichoqlarim*, *chirg'im*, *oppoqqinam*, *o'rgulay*, *bo'yingdan girgaton*, *girgitton bo'lay*, *oyimchaxon*, *oyimposhsha*, *otang aylansin* va b. Bunday erkalash so'zlaridan ham yozuvchilar turli uslubiy maqsadlarda foydalanadilar. Masalan: *qo'zichog* so'zi ko'chma ma'noda 3-shaxs shaklida bolalarga nisbatan qo'llanadi: Sen hafa bo'lsang, men hafa bo'laman-da, *qo'zichog'im* (X.N). G'afur G'ulom esa bu so'zni mullabachalarga nisbatan qo'llagan:

Xutbani tugatgach, xonaqohni to'ldirib o'tirgan mullabachalarga qarab bir nutq irod qildi:

-*Ko'zichoqlarim, ey fuqaroning bolalari!* («Netay». 30). Qani ayting, *ko'zichoqlarim*, bu bizday fuqarolarga marhamat emasmi edi? («Netay» 31).

SHoir ko'chma ma'noli *qarog'im* so'zini faqat qozoq ayoli nutqida qo'llagan: -Uy -bay, *qarag'im*, to'g'ri juk qalbingdi ne qilayin («Shum bola». 148).

Emotsional-ekspressivlikni ifodalashda istehzoli, kinoyali so'zlarning ham muhim o'rni bor. Ayniqsa, «Shum bola» asarida qo'llangan piching, kesatliqqa boy bo'lgan emotsional-ekspressiv leksika muallifning mohir so'z ustasi ekanligidan dalolat beradi. Masalan:

Eshonoyim eshakning bu harakatidan juda ham zavq bilan lazzatlanib, xuddi eshakning bo'ynidan quchoqlab olguday bo'lib, unga xushomad qilar va shirin so'zlar bilan uni olqishlab, er va ko'kda yo'q sevinar edi:

-*Voy, opaginang o'rgulsin! Voy, quloqlaringning qimirlashiga o'zginam girgitton bo'lay!* Uni qarang, oyimchaxon, *quloqlari* biram *chiroyli* qimirlaydiki... *Voy, eshakjonga jonginamni qoqay!* («Shum bola» 191).

G'afur G'ulom ijodida ijobiy munosabatni ifodalovchi *opaginang o'rgulsin, quloqlari, o'zginam girgitton bo'lay, eshakjonga jonginamni qoqay* kabi lug'aviy birliklarning eshakka nisbatan qo'llanishi, shuningdek eshakni erkalatish maqsadida unga **-jon** affiksini qo'shib, undan uslubiy vosita sifatida foydalanganini kuzatamiz.

O'zbek adabiy tilida *kuyov* so'zi qarindoshlikni ifodalab, qizning eri (qizning ota-onasiga nisbatan) hamda endi uylanayotgan yoki yangi uylangan yigit (o'z qaylig'iga, xotiniga nisbatan) ma'nolarini anglatadi. «Yodgor» asarida bu so'z mazax ma'nosida qo'llangan. Chunki asar syujetidan ma'lumki, Jo'ra uylanmasdan «o'g'illi» bo'lib qoladi: Avvalgiday, «Ha, *kuyov*, o'g'ilcha katta bo'lib yuribdimi?», deb mazax qilishmaydi (16).

Ma'lumki, ba'zi so'zlar emotsional-ekspressivlikka ko'ra neytral bo'lib, faqat matn qurshovidagina ekspressivlikka ega bo'ladi:

-Yuragingiz dov bermayaptimi, yigitcha? Do‘ppi, *kiyiksavlat*, deng-chi, bo‘lmasa?... («Yodgor».5).

Mazkur matnda yigit kishi aytgan va‘dasida (so‘zida) turadi ma‘nosi anglashiladi.

Pushaymon ohangi bilan:

-Esiz, esiz yigitlik. Zap odamidan xolis xizmat so‘ragan ekanman-ku; bo‘ldi-ey, esizgina sirlarim. Keling, hali ham bo‘lsa *paranjini tunga ayirbosh qilamiz* birikmasi ham yigit emas ekansiz, ya‘ni gapingizda turmayapsiz ma‘nosiga ishora etgan. Shuningdek, G‘afur G‘ulomning «Shum bola» asari tilidagi «quvnoq xazillar insonning qiyin psixologik holatini yumshatadi va uni ruhiy zarbadan olib chiqadi. Badiiy asarda muallif xazil so‘z va iboralarga ko‘proq murojaat etadi». Asar tilida *arzonqul* kishi, *devona* sigir, *tentak* sigir, *jinni* sigir, *sarkash* ishtaha, *bedavo* qorin, *moshkichiripaz* xotin, og‘ziga kelganini *o‘tlasin*, *yo‘g‘on* duo, ovqatning *xashakiroqligidan* taajjublanmoq, zotdor qushlar, tagi ko‘rgan qushlar, qashqa pashsha, nam tortib qolmoq (xijolat tortib qoladi), sog‘inib ichagimiz uzildi va b. Ba‘zi kesatik, pichinglar kitobxonning kulgusini qo‘zg‘atadi. Masalan: Eng oxiri uzoq muntazirlik va azoblardan keyin *xurmatli moshkichiri* tayyor bo‘ldi (176).

Men bechora *moshkichirining azobini* bekami-ko‘st tortganim holda xo‘rsinardim (176). Lekin o‘zingiz o‘ylang, birovni tandirga qamab, ustiga o‘tirib muzika chalsin, deb *qaysi qonunda yozilgan ekan?* (177).

G‘afur G‘ulomning so‘z ustasi ekanligi uning yangi, original ifodalarni yaratishidadir. Masalan: Domla olomonning orasida qolib ketdi. Nima bo‘ldi, bilmayman. *Tirik bo‘lsa, biror go‘rdan chiqib qolar*, o‘lgan bo‘lsa xudo rahmat qilsin («Shum bola». 170). Og‘zim, jag‘im, tishim jodidek, istagan *xashakni qirqib chiqarishga yaraydi* («Shum bola». 181). Bittang bu erda qol, bittang *ota meros*, *boshing toshdan bo‘lgur* sigirim bor, shuni olib chiqib, ekindan bo‘shagan erning uvatlarida etaklab yurib boqib kelasan, ... («Shum bola». 214). Omon *sigir go‘shiti tilga kelganligidan* qo‘rqib ketib, qopni tashlab yubordi («Shum bola». 222).

Umumiy xulosalar

Hozirgi ilmiy tadqiqotlarda adabiy tilning lugʻat tarkibi, xususan, ibora va maqollarning bir qancha nuqtai nazardan tahlil qilinishi masalalariga daxldor kuzatishlar eʼtiborga tushadi. Shu nuqtai nazarga muvofiq, oʻzbek tilida faol va nafaol soʻzlarning uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilish hozirgi oʻzbek tilshunosligining dolzarb masalalaridandir. Tilning lugʻat sathi oʻz lugʻat birliklari va oʻzlashtirma lugʻat birliklari kabi qatlamlarga boʻlinadi.

Adabiy til leksikasidagi lugʻat birliklari faol va nafaol qatlamlarga ajraladi. Faol qatlamga til jamoasi aʼzolari yoki ularning bir guruhi nutqida ishlatilaverib, odat tusiga kirib qolgan birliklar kiradi. Nafaol qatlamga mazkur til jamoasi lugʻat tarkibidan chiqib ketgan (eskirgan soʻzlar) va tilga yaqinda kirib, hali koʻp qoʻllanuvchi birliklarga aylanib ulgurmagan birliklar (neologizmlar) kiradi. Bu asosan tarixiy mavzularda yozilgan asarlar tilini oʻrganishda qoʻllaniladi.

Lugʻat birliklari ijtimoiy-dialektal tomondan ham bir-biridan farqlanadi. Bu nuqtai nazardan lugʻat birliklari umumxalq birliklari va professional hamda dialektal birliklarga guruhlanadi. Bu tamoyil yozuvchining personajlar nutqini individuallashtirish mahorati, adabiy tilni boyitishga qoʻshgan hissasi kabi masalalarni oʻrganishda qoʻllanadi.

Ibora va maqollarning badiiy asarlarda ishlatilishi va ularning uslubiy xususiyatlarini tahlil qilishda semantik-uslubiy tamoyildan keng foydalaniladi. Bu tamoyilga koʻra soʻzlar dastlab ikki qatlamga guruhlanadi: 1) qoʻllanishi uslubiy tomondan chegaralanmagan soʻzlar; 2) qoʻllanishi uslubiy tomondan chegaralangan soʻzlar.

Birinchi qatlamga barcha uslublarda, ogʻzaki va yozma nutqda birday qoʻllanaveradigan soʻzlar kiradi. Bu soʻzlarning muhim xususiyati ularning uslubiy betarafligidir. Ikkinchi qatlamga kiruvchi soʻzlar mana shu uslubiy betaraf soʻzlar fonida aniqlanadi.

Qoʻllanishi uslubiy tomondan chegaralangan soʻzlar adabiy-kitobiy soʻzlar va soʻzlashuv-maishiy soʻzlar kabi guruhlariga boʻlinadi. Bu guruhlar, oʻz

navbatida, yana kichikroq guruhlarga bo‘linadi. Ko‘rinadiki, semantik-uslubiy tamoyil, akad. L.V.SHcherba ta‘biri bilan aytganda, adabiy til lug‘at tarkibini konsentrik doiralar: asosiy doira (uslubiy betaraf leksika) va unga tutash qo‘shimcha doiralar (uslubiy relevant qatlamlar) tarzida ko‘rsatish imkonini beradi.

Evfemizm tilning ifoda va uslubiy vositalaridan biri sanaladi. Aytish noqulay yoki noo‘rin bo‘lgan so‘z yoki ibora o‘rniga ishlatiladigan «pardali» so‘z yoki ibora evfemizm deyiladi. Masalan, *bo‘g‘oz xotin*, deb aytish jonli tilda ham, adabiy tilda ham noqulay bo‘lganligi uchun uning o‘rnida *ikkiqat, og‘iroyoqli, homilador, yukli* kabi evfemistik so‘zlar ishlatiladi.

Xuddi shuningdek, nutq vaziyatiga qarab *tug‘di* o‘rnida *ko‘zi yoridi, ahmoq* o‘rnida *aqli qisqa, kar* o‘rnida *qulog‘i og‘ir, o‘g‘ri* o‘rnida *qo‘li egri* kabi iboralar qo‘llanadi. Ba‘zi evfemizmlar bir asosiy tushunchani ifodalasa-da, lekin ular o‘zlariga xos ottenkalari va kishilarning bir xil tushunchaga turlicha munosabatda bo‘lishlarini ko‘rsatish jihatidan farqlanib turadi.

Evfemizmlarning bunday farqlanuvchi belgilari sifatida turli emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa egaligi, biron nutq ko‘rinishiga mansubligi, adabiy til yoki dialektga xosligi kabi holatlarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, o‘zbek tilida *o‘lim* tushunchasini ifodalash uchun ishlatiladigan *vafot qilmoq, joni uzilmoq, jon bermoq, qazo qilmoq, olamdan o‘tmoq, ko‘z yummoq, mangulik uyqusiga ketmoq, bandalikni bajo keltirmoq, omonatini topshirmoq* kabi evfemizmlar emotsional-ekspressiv va uslubiy bo‘yog‘i bilan bir-biridan farqlanadi.

G‘oyaviy mazmuni, ma‘naviy-ahloqiy xulosasiga ko‘ra xilma-xil, rang-barang bo‘lgan maqollar uslubiy vazifasi jihatidan ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Maqollardan keng va teran g‘oyani qisqa, ixcham shaklda ifodalash kishilarni nutqqa e‘tibor berish va talabchan bo‘lishga o‘rgatadi, to‘g‘ri va mantiqiy fikrlashga yordam beradi.

Maqollardan foydalanishda ularning tushunarli bo‘lishi, o‘z o‘rnida to‘g‘ri ishlatilishiga, nutqni aniq va ta‘sirchan qilishiga alohida e‘tibor berish kerak. Maqollarni noto‘g‘ri, buzib ishlatish ham ularning ma‘nosiga putur etkazadi.

Quyidagi misollarni kuzating: *Bu taklifning yaxshi ekanligiga shubha yo‘q, lekin bu taklif oy eshikka, arva tuynukka kelganda kiritiladi* (Gazetadan). Bunda xalq tilidagi *oy tuynukka, arava eshikka kelganda* maqolining leksik tartiblanishi buzib berilgan.

Quyidagi matnda esa xalq tilidagi *echkiga jon qayg‘u, qassobga yog‘ qayg‘u* maqolining butunlay buzib ishlatilishi maqoldan anglashiladigan majoziy ma‘noni ham, mantiqiy xulosani ham yo‘qqa chiqargan: *Sichqonga don qayg‘u, qassobga jon deganlaridek, hamma o‘z bilgani bilan ovora* (Gazetadan). Shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, ibora va maqollarning lingvistik tabiati, ularning leksik, morfologik yoki sintaktik xususiyatlari tahlil qilinmaydi. Bu masalalar-tilshunoslik predmeti. Shuning uchun bunda, asosan, ibora va maqollarning uslubiy vazifasi, badiiy-estetik vazifasi tahlil qilinadi. Shunday qilib, ibora va maqollar badiiy asarda va badiiy nutqda, birinchidan, uslubiy vazifa bajarib kelsa, ikkinchidan estetik vazifa ham bajarishi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E. “Uslubiy norma” tushunchasi // Uslubshunoslikning dolzarb muammolari (Xalqaro ilmiy anjuman materiallari). Samarqand. 1999, 31-34-betlar.
2. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent: Fan, 1985. -200 b.
3. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi, adabiy norma tiplari. 1-qism, Toshkent, 1997. -136 b.
4. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi, adabiy norma tiplari. 2-qism, Toshkent, 1998. -134 b.
5. Yo‘ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. Samarqand, 1982. –82 b.
6. Karimov S. O‘zbek tilining badiiy uslubi. Samarqand, 1992. –140 b.
7. Ne‘matov H., Bozorov O. Til va nutq. Toshkent, 1993-30 b.
8. Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 1995. -138 b.
9. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. Toshkent, 1987. -160 b.
10. Samadov H. O‘zbek tili uslubiyati (badiiy uslub). -Toshkent: O‘qituvchi. 1991, -56 b.
11. Tursunov U., O‘rinboev B. O‘zbek adabiy tili tarixi. -Toshkent: O‘qituvchi, 1982. –176 b.
12. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. Toshkent: Fan, 1990. –110 b.
13. SHukurov N. Badiiy uslub va badiiy til // O‘zbek tili va adabiyoti, - 1972, 4-son.
14. YUsupov K. O‘zbek adabiy tilining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari. Toshkent, 1986.
15. O‘rinboev B. O‘zbek so‘zlashuv nutqi. Toshkent, 1982 -152 b.
16. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. Buxoro, 2000. -26 b.

17. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev YO. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1992–160 b.
18. Qo'chqortoev I. Badiiy nutq stilistikasi. Toshkent, 1975. –96 b.
19. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili (sintaksis). Toshkent: O'qituvchi, 1987 –254 b.

MUNDARIJA

Asoslama.....	
Kirish.....	
I Bob. Nofaol lug‘at tarkibiga oid so‘zlarning uslubiy xususiyatlari.....	
1. Faol va nofaol leksik qatlam haqida.....	
2. Qo‘llanish doirasi chegaralangan leksikaning uslubiy xususiyatlari.....	
II Bob. Ibora va maqollarning uslubiy xususiyatlari.....	
1.Emotsional-ekspressiv leksikaning uslubiy xususiyatlari	
2.Emotsional-bo‘yoqdor so‘zlarning uslubiy qo‘llanilishi.....	
Umumiy xulosalar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar.....	